

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**

«KOSTYUM DIZAYNI» kafedrası

**Baxmal matosiga zardo'zlik kashtasini qo'llab, ayollar bashang liboslari
to'plami dizayn loyihasini ishlab chiqish
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi**

Bajardi: Xaydarova N.T.

Ilmiy rahbar: t.f.d. prof . Tashpo'latov S.SH.

«_____»_____2018 y.

TOSHKENT 2018



ТОШКЕНТ ТЎҚИМАЧИЛИК ВА ЕНГИЛ САНОАТ ИНСТИТУТИ


5157900 - *Dizayn (kostyum)*
бакалавриатура таълим йўналишлари бўйича


БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

Мавзу *Baxmal matniga zardozlik kashtaxiri*
gillab, ayollar boshqar liboslari toplami loyiha-
simi ishlab chiqish.
Талаба *Zaydarova Mirxon Tekir qizi*
Факультет *USTD* гуруҳ *25-14*

Консультантлар:

1. *loyiha old qismi Yunusova Z.* 
(БМИ таркибий қисми, консультантнинг Ф.И.Ш., сана ва имзо)
2. *loyiha qismi Tashpölatov S.Sh.* 
(БМИ таркибий қисми, консультантнинг Ф.И.Ш., сана ва имзо)
3. *Ekologiya qismi Mansurova N.*  9.06.18
(БМИ таркибий қисми, консультантнинг Ф.И.Ш., сана ва имзо)

T.f.d. professor Tashpölatov S.Sh.
Раҳбар 

Кафедра мудири *dotsent Yunusxodjayeva Z.M.*


Тошкент — 2018 йил.

ТОШКЕНТ ТЎҚИМАЧИЛИК ВА ЕНГИЛ САНОАТ ИНСТИТУТИ

Кафедра

Hostyum

dizayni

Декан

«Тасдиқлайман»
Akhbarov R.T.

«*1*»

2018й.

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИГА ТОПШИРИК

Талаба

Xaydarova Muxon Tohir qizi

Таълим йўналиши

5150900

Dizayn

(Hostyum dizayni)

Факультет

Ур5TD

Битирув малакавий иши мавзуси

Baxmal malaziva xardorlik kash-
tasini qallob ayollar boshqar libostari toplami dizayn loyihasi

Топширик

Hostyum dizayn kafedrasi

ni ishlab chiqish.

(кафедра, корхона, ИТИ, ДНИ, ташаббуси билан)

Рахбар

t.f.d. proff. 5508

Tashpolatov S.Sh.

(лавозими, унвони, Ф.И.Ш.)

1. Битирув малакавий ишининг қискача мазмуни

Ushbu bitiruv malakaviy ishida xardorlik tex-
nikari organilgan va xardorlik kash-
ni qallob, ayollar boshqar libostari topla-
mi yaratilgan. Libostar toplami
uchun brand-name tanlanagan va rek-
lama loyihalash ishlab chiqilgan.
Bitiruv malakaviy ishi tushuntirish
xati va badiiy qismlardan iborat.

2. Битирув ишининг таркибий қисимлари.

2.1. Асосий қисм (технологик, конструкторлик, тадқиқот ва бошқа)

Bitiruv malakaviy ishinin tarkibi
loyiha old, loyisha va ekologiya qism-
lardan iborat. Loyiha oldi qismida
toplam konstruktivni yaratilgan. Loy-
diy maobaa tanlanagan. For iskiilar
va taklif modellar yaratilgan. Ular-
ni kompozitsion va koloristik yechi-
ni to'g'ri tanlanagan va asoslangan
loyiha qismida model uchun konst-
ruktivni qurilgan, modeldashirilgan.
Eski loyisha ishchi nuyatlar ishlab
chiqilgan, talablar asosida andaza
yaratilgan.
Ekologiya qismida: shikastlanganda birin-
chi yordam ko'rsatish turlari - organilgan.

Консультант

Yunusova Z.

2.2. Кўшимча қисмлар бўйича консультантлар Mansurova N (Ф.И.Ш.)
„Шикастланданда биринчи yordam ko'rsatish turlari“

Birinchi yordam bu - baxtsiz hodisalar
o'q berqanda kishi shikastlanganda
yoki to'satdan kasal bo'lib, yolg'anda
uning hayotini saqlab qolish va yomon asoratlardan
omon qolishi uchun ko'rsatiladigan
va oddiy tadbirlar majmuri.

2.3. Ҳисоб-тушунтириш матни таркиби ва қисқа мазмуни

Hisob tushuntirish matnida tipaviy
qomat olchamlari, konstruksiya qurish
uchun qo'limchalar AK misoli
berilgan. Shishi nujatlari jadvali
toldirilgan.

2.4. Битирув малакавий иши график қисмининг таркиби ва қисқа мазмуни
(бажариладиган график материалнинг ҳажми)

График qismida for eskizlar, eskizlar,
texnik rasmlar, dekorativ rasmlar
ko'rsatilgan. Maxsus did bema
planshet va badiiy loyihalash ja-
rayoni aks ettiruvchi eskizlar
albomi, sketchbook liboslar top-
suratlar berilgan. qismi va foto-

Битирув малакавий иши химояси 12.06.2018
Топширик берилган сана 14.01.2018
Кафедра мудир

Рахбар

Бажарувчи

(имзо)

(имзо)

(имзо)

(Ф.И.Ш.)

(Ф.И.Ш.)

(Ф.И.Ш.)

Nahidova N.

Tashpölatov S.Sh.

Kaydarova

Mirson

Katay

	Mundarija	
	Kirish	3
1.	Loyiha oldi qismi	
1.1.	Ayollar bashang liboslar to'plami konseptsiyasini ishlab chiqish	6
1.2.	Ayollar bashang liboslarida istiqbolli moda yo'nalishi tavsifi	9
1.3.	Marketing tadqiqotlar (o'xshash modellar tahlili)	11
1.4.	Ayollar bashang liboslar to'plamiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish	15
1.5.	Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash	16
2.	Loyiha qismi	
2.1.	Eskiz loyihalash	
2.1.1.	Ayollar bashang liboslar to'plamini kompozitsion yechimi va koloristik qatorni tanlash	19
2.1.2.	Yakunlovchi eskizlarni yaratish va modellarni texnik tavsifini ishlab chiqish	32
2.1.3.	Texnik eskizlarni yaratish	42
2.2.	Ayollar bashang liboslar to'plamini loyihalash usulini tanlash va asoslash	47
2.3.	Konstruktorlik- texnologik qism	
2.3.1.	Ayollar bashang liboslar to'plami uchun materiallar paketini konfektsiyalash	49
2.3.2.	Konstruksiyalash usulini tanlash va asoslash	52
2.3.3.	Ayollar bashang libosi asosiy detallar chizmalarini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar	53
2.3.4.	AK va BK hisobi va qurish	55
2.3.5.	AK va BK ni konstruktiv–dekorativ modellashtirish	60
2.3.6.	Ishchi hujjatlarni ishlab chiqish	

2.3.6.1	Yangi modellar andozalarini tayyorlash tamoyillari tavsifi	61
2.3.6.2	Andozalar joylashmasi	69
2.3.7.	Ayollar bashang liboslar to'plamining texnologik ishlov berish xususiyatlari va tayyorlanishi	70
2.4.	Ayollar bashang liboslar to'plami reklama loyihasini ishlab chiqish	
2.4.1.	Nom tanlash (BRAND- NAME)	73
2.4.2.	Ayollar bashang liboslar to'plami reklama loyihasini ishlab chiqish	74
3.	Ekologik qism	76
	Xulosa	78
	Adabiyotlar ro'yxati	79

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevral PF-4947-sonli farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha xarakatlar strategiyasi ishlab chiqildi [1].

Harakatlar strategiyasining uchinchi yo'nalishi: Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohatlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etishdan iboratdir.

Bu harakatlar strategiyasini amalga oshirishda xorijiy sarmoyadorlarni jalb etish, yangi investitsiyalarni olib kelish, jahon standartlariga mos keladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va uni chet davlatlarga eksport qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bozorlarni mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirish, faqatgina xomashyo emas, balki tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun tadbirkorlarga qulayliklar yaratilmoqda. 2017-2021 yillar umumiy qiymati 40 mlrd AQSH dollari bo'lgan 649 ta investitsiya loyihasi ko'zda tutilgan. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotni ishlab chiqarish 1,5 baravar oshishi sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, yalpi ichki mahsulotdagi

qayta ishlash tarmog'idagi ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshishi kutilmoqda.

2016-yil 21-dekabrda “2017-2019 yillarda to'qimachilik va tikuv - trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora–tadbirlari dasturi to'g'risida” Prezident Sh.M. Mirziyoyevning qarorini alohida ta'kidlash lozim. Ushbu muhim dasturga ko'ra, 2020–yilgacha 132 ta investitsion loyiha amalga oshishi kutilmoqda, ularning 50 foizi chet el investitsiya va kreditlari bo'lib, loyihalarning umumiy qiymati 2,2 mlrd dollarga teng. Mazkur loyihalarni joriy qilish natijasida yaqin yillar ichida eksport salohiyatini 7-8 mlrd dollarga oshirish maqsad qilingan. Ayni paytda “O'zbekto'qimachilik sanoati” uyushmasi korxonalari o'z mahsulotlari dunyoning 55 mamlakatiga eksport qilmoqda va bu ko'lam muntazam kengaytirilmoqda. To'qimachilik tikuvchilik–trikotaj korxonalari o'z mahsulotlarini MDH mamlakatlari, Xitoy Xalq Respublikasi, AQSH, Kanada va qator arab davlatlari bozorlariga yetkazib bermoqda.

“Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan barkamol yetuk rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksak avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlashirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi[2].

Birinchidan, azaldan ma'lum va mashhur bo'lgan hunarmandchilikning o'ziga xos turlaridan biri bo'lgan zardo'zlik tikish texnikasining tarixini, qo'llanilish sohalari o'ziga xos xususiyatlari va zamonaviy moda olamidagi ahamiyatini o'rganish va tahlil qilish lozim.

Ikkinchidan, bugungi kunda moda olamida ushbu texnikani qo'llayotgan dizayner uchun ushbu texnika haqida aniq ma'lumotlar zarurdir.

Uchinchidan, esa zardo'zlik tikish texnikasining barcha turlarini o'rganib ularni dizayn yo'nalishi uchun naqshlarda yangilik kiritish. Natijada, har bir dizayner zardo'zlik naqshlarinig turlari va uning tikilish yo'llari haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Kiyimlarda zardo'zlik ornamentlarini to'g'ri qo'llanilishi va uning tikilish yo'llari haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'ladilar. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng milliy qadriyatlarni tiklas va ularning yaxshi an'analarini zamonaviy hayotda qo'llash dolzarb masalaga aylandi. Bugungi kunda mamalakatimizda turizm sohasi jadal rivojlaniyatgan bir paytda xorijiy mehmonlarning milliy buyumlarga, ulardagi bezak turlari va naqshlariga, ularning ma'naviy ahamiyatiga qiziqishi juda katta. Lekin, shunga qaramasdan hozirgi paytda o'zbek milliy zardo'zlik ornamentlarning yo'qolib ketayotgani va ma'naviy ahamiyati haqida ko'pchilik bilmagani uchun zardo'zlik ornamentlarini ma'nosini va ularning ma'naviy ahamiyatini ishlab chiqish va uni ommaga taqdim etish dolzarb masala hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Milliy mintalitetimiz me'yorlarini buzmaganda, ham ayollarning xilma-xil va o'ziga xos, betakror talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ushbu bitiruv malakaviy ishida zardo'zlik texnikasi yordamida milliy elementlarni, baxmal matosida aks ettirishga harakat qilindi. Hozirgi kunda milliy elementlarni libosda aks ettirishning turli xil usullari paydo bo'lib, qiziqish yanada ortib bormoqda. Milliy elementlarni yanada talabbop bo'lishi va aktuallashishi uchun zamonaviy usuldan foydalanildi. Hozirgi zamonaviy moda ommalashgan bir paytda, naqshlarni turli xil usul va texnikada ko'rsatib berish maqsadga muvofiqdir. Buyumlarning ishlab chiqishning asosiy maqsadi-aholini moddiy va ruhiy talablarini qondirish va buyumlarni ijtimoiy maqbulligidadir.

Bitiruv malaka ishining vazifalari: Baxmal matosiga zardo'zlik kashtasini qo'llab ayollar bashang liboslari to'plami dizaynini yaratishda to'plamni kontsepsiyasini ishlab chiqish; bashang liboslari bo'yicha

istiqbolli moda yo'nalishi o'rganish; marketing tadqiqot o'tkazish; liboslar to'plamiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish; ijodiy manbani asoslash va uslublash; liboslarni kompozitsion yechimi va ranglar uyg'unligini tanlash; taklif modellarni yaratish; materiallarni tanlash va paketini konfeksiyalash; tanlangan model uchun konstruksiya qurish va modellashtirish; ishchi hujjatlarni ishlab chiqish va andazalrni yaratish; andozalar joylashmasi va gazlamlar sarfini aniqlash; BREND–NAME tanlash va liboslar to'plami reklamasini ishlab chqish.

LOYIHA OLDI QISMI

1. Loyiha oldi qismi

1.1. Liboslar to'plami kontsepsiyasini ishlab chiqish

Zamonaviy dizayn muammolarida ijodiy konsepsiya (asosiy g'oya) loyihalash maqsadi va vazifalari, ma'naviy yo'nalish muammosi markaziy o'rinni egallaydi. Konseptuallik –bu loyiha madaniyati mohiyatini asoslaydigan umumiy ijodiy ko'rsatmadir. Ijodiy konsepsiya loyihaning qiymati va ma'naviy mazmunini belgilaydi. Ijodiy konsepsiyaning mazmuni va harakteri nafaqat muallifni shaxsiy dunyoqarashi bilan, balki loyiha madaniyati va jamiyatni rivojlanishi asosiy rag'batlari bilan bog'liq, odamda dizaynga konsepsiyalar muhim muammolarni ifodalaydi, ular jamiyatni va insonni hayotlantiradi[3]. Dizayn insonlarning ehtiyojini hisobga olishi zarur va ularning muammolarini yechishda o'z hissasini kiritishi lozim. Aks holda u madaniyatga insonparvarlik ma'nosidan, o'z mavjudligidan mahrum bo'ladi. Ushbu bitiruv malaka ishining konsepsiyasi Baxmal matosiga zardo'zlik kashtasini qo'llab ayollar bashang liboslar to'plami dizaynini ishlab chiqishdan iboratdir. Dizayner kostyum kolleksiyasini yaratishda avval ijodiy manbaga asoslanadi. Har bir dizayner, o'z kolleksiyasini

yaratishda ijodiy manbaa sifatida har qanday tabiiy hodisalardan tortib, oddiy bir oshxona buyumigacha, tabiiy muhitning turli elementlaigacha foydalanishi mumkin. Aytaylik, u dunyoda sodir bo'layotgan voqea, musiqa, rangtasvir, adabiyot, balet, teatr, sirk, kino, etnik mavzular, muhandislik inshootlari, hattoki mashina detallari ham bo'lishi mumkin. Oddiy bir amaliy san'at asarlarining bir necha turlarini, (shisha, tosh, yog'och, metall, keramika va boshqalar) tayyorlanishini, musiqa asboblarining turlarini, yer fakturasidan tortib yomgir shamolgacha ijodiy manba sifatida foydalanishi ham mumkin ekan. Umuman olganda, har bir dizayner o'z faoliyati davomida muayyan bosqichda, tarixiy va xalq an'analari bilan ilhomlanib, ijodiy manbaalarga murojaat qiladi. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, dizaynerlar davrlar mobaynida ijodiy manbaani turli bo'lganini ko'rsihimiz mumkin. XIX-XX asrlar oralig'ida bo'lgan badiiy uslub Modern jonli tabiatiga asoslangan va aynan shu davrda cheklangan me'morchilik imperiyasi paydo bo'ldi. XX asr modasi ko'pincha etnik va tarixiy manbaalarga ham murojaat qilgan[4].

Zardo'zlik—xalq amaliy san'ati va xalq hunarmandchiligining juda qadimiy turlaridan bo'lib, zar iplar bilan qo'l choklari yordamida gul tikish kasbidir. «Zardo'zlik» so'zi forscha «zar»—tilla, «do'zi»—tikmoq, ya'ni zar iplar bilan gul, kashta tikmoq, degan ma'noni anglatadi. Zardo'zlik hunar sifatida zardo'zlik usullari va ularni qo'llash amaliyotlarini o'z ichiga oladi. Zardo'zlik ham kashtachilik kabi amaliy bezak san'atidir (1.1 va 1.2-rasmlar). Xalq amaliy bezak san'ati tarixi jismga badiiy ishlov berish faoliyatidan boshlangan. Insonning badiiy-ijodiy tafakkuri mahsuli bo'lgan bu faoliyat tosh asrida paydo bo'lgan. Bu faoliyat inson qalbida komillikka va ezgulikka intilishni kuchaytirgan. Xalq amaliy bezak san'ati naqshlar asosida buyumlarga badiiy ishlov berishdan iboratdir [5].

Ushbu yaratilayotgan liboslar to'plami uchun matoga bezak berishda modulli loyihalash usuli, ya'ni matoga zardo'zlik kashtasidan foydalanib gul bosishda naqshlarni qaytarilishida, hamda bu naqshlarni ishlab chiqishda

kombinatorika loyihalash usulidan keng foydalanilgan. Liboslarda naqshlar hoshiya sifatida qo'llanildi. Matoga gul bosilganda kiyim siluetiga moslab naqshlar kompozitsiyasi yaratilgan. Bunda: old bo'lak, yeng qismi, libos uzunligi hammasi inobatga olingan holda naqshlar tushirilgan. Ushbu to'plamni yaratishda ijodiy manba sifatida zardo'zlik ornamentlari tanlandi. Tanlangan ijodiy manbaani tahlil qilib gullarning shakllari, kelib chiqish va tarixi o'rganildi. Zardo'zlik naqshlari va uning betakrorligi konsepsiyaga juda o'xshash. Shu sababli ijodiy manba qilib zardo'zlik san'ati tanlandi. Mazkur bitiruv malaka ishining asosiy maqsadi esa boy tariximiz, madaniyatimizga yangilanish ruhini kiritish, tarixiy liboslarimizning bashang va qimmatbaho ko'rinishga ega ekanligini barchaga eslatib o'tish va Yevropa va Markaziy Osiyoning eng ko'rkam davrlarini birlashtirgan holda o'ziga hos go'zallikka ega libos to'plamini yaratishdir..



1.1-rasm. Ayollar zardo'zlikda ishlash jarayoni.



1.2-rasm. Zardo'zlik usuli bilan ishlangan chopon qismi.

1.2 Ayollar bashang liboslari bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi tavsifi

To'plamni yaratishda mahalliy va xorijiy yetakchi dizaynerlarning 2017-2018 yillar uchun yaratilgan liboslar assortimenti o'rganildi. Dizaynerlarning ishlarini kuzatganimizda ular o'z liboslar to'plamlarida qumsoat, trapetsiya, to'g'ri to'rtburchak va dumaloq shakllarda keng va samarali foydalanganlar. Dunyoga mashxur modalar uyi bo'lgan Guo Pei ishlarini kuzatganimizda u trapetsiya, qumsoat, to'g'ri to'rtburchak trapetsiya siluetlaridan mohirona foydalanilgan. Bu siluetni Kristian Dior ishlarida ham kuzatishimiz mumkin(1.3va 1.4rasm).



1.3-rasm. *Guo Peining* kolleksiyasidan



1.4-rasm. *Dolce & Gabbana* kolleksiyasidan

2017-2018 yil liboslarini tahlil qilish jarayonida dizaynerlar axromatik ranglar bilan bir qatorda xromatik ranglardan ham keng foydalanganlar. Ular liboslar to'plamlarining konsepsiyasi, ijodiy manbadan kelib chiqqan holda to'plamlarining ranglar palitrasini, siluet qatorlarni tuzib chiqdilar. Dekorativ bezaklarga to'xtaladigan bo'lsak, bu yillarda dizaynerlar munchoq, piston, kashta, tosh, har xil pechatlardan keng va o'ziga xos usulda foydalanganlar. Har bir dizayner o'zining ishlash usuli va yo'nalishidan kelib chiqib bezaklardan foydalangan. Kuz–Qish mavsumini tahlil qilganimizda, bu yillarda dizaynerlar mavsumga mos matolardan keng foydalanganlar[30]

2017-2018 yilda dizaynerlarni ishi oldingidan juda o'zgacha bo'lib, unda ayollarni jozibadorligini, mag'rurliligi, oddiyiligini juda go'zal tasvirlashgan. Bu go'zallikni mashhur dizaynerlar ishlarida ko'rishimiz mumkin. Masalan: bular Versace, Christian Dior, Chanel, Miu Miu, Dolce & Gabbana, Gucci, Prada, Valentino, Zac Posen va boshqalar(1.5-rasm). Bu dizaynerlar ishlarida kashtaning ko'plab turlaridan, naqshlardan, kashta turlaridan, aplekatsiyalardan, pechatlardan, bostirma choklardan foydalangan holda bezaklarni qo'llaganlar[31].



1.5-rasm. *Zac Posen kolleksiyasidan*

Versacening ham kolleksiyalari o'zining bashangdorligi, bichimlarining o'ziga hosligi bilan ajralib turadi. Versacening 2017-yildagi qish mavsumiga mo'ljallangan kolleksiyasidagi liboslari romantika uslubida yaratilgan bo'lib, trapetsiya, tog'ri to'rtburchak va qum soat siluetlardan foydalangan. Versace liboslarida to'q ranglardan: qora, to'q qizil, to'q yashil, sariq ranglardan foydalangan. Hamda tilla rangdagi vishevkalar bilan bezak bergan va mo'ynadan ham foydalanganligi kolleksiyasiga yana ham bashanglik baxsh etib turibdi. Versacening kolleksiyasidagi matolar, ranglar, bezaklar juda chiroyli uyg'unlashtirilgan(1.6-rasm).



1.6-rasm. *Versace* modalar uyi liboslar to'plami

1.3. Marketing tadqiqotlar (o'xshash modellar tahlili)

Marketing tadqiqotlari deganda marketing faoliyatining turli jihatlari bo'yicha ma'lumotlarni sistemali yig'ish, tartibga solish va tahlil qilish tushuniladi. Marketing tadqiqotlari marketologlarni axborotlar orqali bozor, is'temolchilar, raqobatchilar va marketing tashqi muhitning boshqa elementlari bilan bog'lovchi vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, bozor munosabatlari tobora chuqurlashib borayotgan bugungi kunda har bir korxona uchun marketing tadqiqotlari o'kazishning ahamiyati beqiyosdir, chunki marketing tadqiqotlariga asoslanib, korxonalar mahsulotlariga bo'lgan talabni va bu mahsulotlarning raqobatdoshligini qanday ekanligi haqida ma'lumotlar oladilar[7].

Bozorni tadqiq qilish—marketing tadqiqotlarining eng ko'p tarqalgan yo'nalishidir. U korxona faoliyatini belgilash uchun bozor shart-sharoitlari haqida ma'lumot olish uchun o'tkaziladi. Marketing tadqiqotlari korxona faoliyati haqidagi noaniqliklari kamaytirishga yordam berib, korxonaning samarali faoliyati haqidagi noaniqliklarni kamaytirishga yordam berib, korxonaning samarali faoliyatini ta'minlaydi.

Iste'molchilarni tadqiq qilish-iste'molchilar tovarlarni tanlaganida rahbarlik qilishga undovchi omillar (daromadlar, ijtimoiy ahvol, jinsiy yoshga doir tuzilma ma'lumot) ning butun majmuini aniqlash va tadqiq qilishga imkon beradi. Tadqiqot obyektlari-bir xil (analog) tovarlarning va raqobatchilarning tovarlarining iste'mol xususiyatlari iste'molchilarning yangi tovarlarga munosabati assortimenti, o'ram (upakovka), servis darajasi, mahsulotning qonuniy me'yorlar va qoidalarga muvofiqligi, iste'molchilarning istiqboldagi talablari.

2017-yil yildagi bozorni tahlil qilganda shu bu yil oddiylik, har-xil milliy naqshlarga talab ortdi. Kundalik kiyimdan tortib to bashang liboslarda ham bu usullarni ko'rishimiz mumkin.

Guo Pei kolleksiyasi ham butunlay yangicha va o'ziga xos uslubda yaratilgan. Asosan villur, barxit va jakard matolaridan foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Ranglar esa, qizil, ko'k, sariq, olovrang kabi ranglardan o'rinli foydalanganini uchun ham kolleksiyasi juda chiroyli va yangicha ko'rinish kasb etgan(1.7-rasm)



1.7-rasm. *Guo Pei kolleksiyasi to'plamidan*

Dolce Gabbananig ham kolleksiyalari o'ziga hosligi bilan butkul ajralib turadi. Dolce & Gabanna o'z kolleksiyalarida ko'plab bezaklar, naqshlardan, kashta turlaridan, aplikatsiyalardan juda o'rinli foydalangan. Uning kolleksiyalaridagi ranglar gammasi bezaklar bilan uyg'unlashib ketgan. U ko'proq tilla rangdagi, kumush rangdagi bezaklardan

foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. U kolleksiyasida asosiy urg'uni atirgulga bergan, bezaklar esa unga yanada bashanglik berib turibdi[32].



2017-yil yildagi bozorni tahlil qilganda shu bu yil oddiylik, har xil milliy naqshlarga talab ortdi. Kundalik kiyimdan tortib bashang liboslarda ham bu usullarni ko'rishimiz mumkun. Ustki kiyimlarda oddiy, sodda, va qomatga qumsoat shaklidagi siluetdagi bashing liboslar urfda. Bozorni tahlil qilganda ustki kiyimlarda har xil milliy va zamonaviy naqshlardan keng foydalanalganligini ham kuzatishimiz mumkin. Matolarda ham bu narsalarni kuzatishimiz mumkin (1.8-rasm).



1.8-rasm. Mahalliy savdo markazlaridagi mato namunalari

Ayollar bashang liboslarining konstruktiv-dekorativ yechimlari tahlili.

1.1-jadval

Konstruktiv-dekorativ yechimi	Texnik rasmi					
Siluet						
Yenglar turi						
Bo'yin o'mizini shakllantirish						
Etak qismining turi						

1.4. Ayollar bashang liboslarida zardo'zlik texnikasidan foydalanib zamonaviy liboslar to'plamiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish.

Iste'mol talablariga quyidagi talablar kiradi: Mahsulotga shaxsiy foydalanish vositasi sifatida qo'yiladigan estetik, gigiyenik, utilitar, ergonomik, ekspluatatsion, funksional va boshqa talablar. Mahsulotga dizayn obekti sifatida qo'yiladigan shakl va tarkibning milliy liboslarga asoslanganligi. Loyihalanayotgan buyum moda namoyishi uchun yaratilgan bo'lib, bu kiyimlar asosan yagona nusxada ishlab chiqilgan. Bu buyumni ommaviy ishlab chiqarishga moslash uchun, undagi matoga zardo'zlik texnikasi yordamida naqsh bosish usulini qo'lda emas, balki kashta mashinasi yordamida ham qo'llash mumkin.

Loyihalanayotgan buyumga qo'yiladigan talablar:

Kiyimni sifatini baholash uchun iste'molga oid sifat ko'rsatkichlari va texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Iste'molga oid ko'rsatkichlar deb, insonning buyumni iste'mol qilish jarayonidagi muayyan talablarni qondirishga qaratilgan buyum xossalari tushuniladi.

Ko'ylak konstruktiv jihatdan sodda, matodagi naqshlar nafis did bilan ishlangan, zamonaviy moda yo'nalishiga muvofiq, siluet qatorlar analiz qilinib estetik talablarga mos keladigan ravishda liboslar to'plami ishlab chiqildi. Bunda libosning tashqi ko'rinishi o'zgacha insonga ko'rk bag'ishlab turishi kerak. Bundan tashqari naqshlar bir-biriga uyg'un holatda kompozitsion yechimga ega bo'lishi kerak.

Estetik talab jumlasiga model konstruksiyasining badiiy butunligi, mukammaligi va zamonaviy moda talabiga javob berishi hamda haridorgirliigi kiradi. Estetik hususiyatga ega bo'lgan libos foydali buyumga aylanadi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar yani ustki libos matosi hamyonbopligi, noyobligi, o'ziga xosligi libosda o'rinli qo'llanilishi hamda dizayner ijodiy yaratgan libosi jahon standartlariga to'la javob berishi lozim. Bu ko'rsatkich iste'molchiga va ishlab chiqarishga oid talablarni o'zaro bog'lab maxsulotni

konstruksiyalash, ishlab chiqarishda texnologik ishlarni tayyorlash va ishlov berish hamda foydalanish jarayonidagi sarf harajatlarni bildiradi.

Ergonomik talab jumlasiga buyumni eksplutatsiya qilish davrida inson uchun qulay sharoit yaratuvchi, uni toliqtirmaydigan sharoit tug'diruvchi faktorlar kiradi. Ya'ni yaratilgan libos inson faoliyati, harakatlanishiga birmuncha qulay, ishlab chiqarilgan matosi havo o'tkazuvchanlik darajasi yetarlicha bo'lishi lozim. Ustki liboslarda asosan issiqlikni saqlab turuvchi qalin va tabiiy matolardan foydalanish inson salomatligida kata ahamiyat kasb etadi.

Funksional talabda model aniq bir vazifaga mo'ljallangan iste'molchining antropometrik o'lchamlari guruhiga mos bo'lishi kerak. Ayni buyumning vazifasi modelga, uning konstruksiyasiga va materiallariga qo'yiladigan talablarni shakllantira oladi. Funksional talabda ishlab chiqilgan modelning aynan qanday funksiyalarni bajarishini hisobga olgan holda matolarning to'g'ri tanlanishi, bichimning to'g'ri tanlanishi, siluetning to'g'ri tanlanishi o'lchamlarga mos holda amalga oshirilishi lozim.

Eksplutatsion talab buyumni foydalanish jarayonida yaroqlilik holatini uzoq muddat davomida saqlanib turish qobiliyati. Bunda model o'z shaklini saqlovchanligi, matolarning chidamliligi, biriktiruvchi choklarning uzilishga chidamliligi kabi talablarga javob berishi kerak [8].

Ushbu liboslar to'plami uchun talablar quyidagi tartibda belgilanadi:

- Estetik,
- Funksional,
- Eksplutatsion.

1.5. Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash

Dizaynerlar kostyum to'plamlarini yaratishda ijodiy manbaa sifatida har qanday tabiiy xodisalar, buyum muhitining turli elementlar dunyoda sodir bo'layotgan voqealar musiqa, rangtasvir, adabiyot, balet, teatr, erkin mavzular, me'morchilik, muhandislik inshootlari, musiqa asboblari, ekologiya va umuman bizni o'rab turgan atrof muhitdagi barcha narsalardan foydalanish mumkin. Ushbu to'plamni yaratishda ijodiy manba sifatida zardo'zlik amaliy san'ati tanlandi [9].

Zardo'zlik san'ati o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, deyarli barcha Sharq mamlakatlari uning vatani hisoblanadi. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo'lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o'sha yerda kashf etishgan. Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirgach, zar, ipak yoki jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuhrat qozongan. Zardo'zlik san'atining an'analari Vizantiyada ham rivoj topib, zardo'zi kiyim-kechaklar faqat imperator a'yonlari va aslzodalarigagina mansub bo'lgan. Zardo'zlikning vatani qadimgi Yunoniston bo'lib, bu yerda zodagonlar zar, ipak va jun ip qo'shib to'qilgan kashtali naqshlar tushirilgan kiyimlar kiyishgan. Demak, zar, ipak va jun ip qo'shib to'qilgan kashta—zardo'zlikning ibtidoiy ko'rinishlaridan biri bo'lgan. Sosoniylar davrida Eron podshohining saroyida ha zardo'zlik san'ati rivoj topgan deyishga asos bor, chunki bu mamlakat Vizantiya bilan muntazam madaniy va siyosiy hamkorlik qilgan. Hozirgi Eronda XV-XVII asrlardagi zardo'zlik namunalaridan anchagina yodgorlik saqlanib qolganligi badiiy an'analar uzoq yillar davomida rivojlanganligidan dalolat beradi. Keyinchalik Rim imperiyasi tomonidan bosib olingan qadimgi Misr hamda Bobilda ham zardo'zlik rivojlana boshlaydi. Ayniqsa, Qadimgi Bobil (Vavilion) o'zining kashtali qimmatbaho matolari bilan dunyoga mashhur bo'lgan. Bu yerda kashtachilarni «sidon cho'rilar» deb atashgan. Bobil podsholari va aslzodalarining kiyimlari ham geometrik naqshli kashtalar bilan kashtalangan bo'lib, ularga quyma gulli oltin plastinkalar kiritilgan. Keyinroq zardo'zlik Qadimgi Bobil bilan yaqin

aloqada bo'lgan Eron podsholigi saroyida ham rivojlana boshlaydi. Eron shohlari hamda aslzodalarining kiyimlari ham oltin iplar bilan tikilgan bezaklar va qimmatbaho toshlar bilan naqshlana boshlagan. Aslzodalar hayotida muhim o'rin egallay boshlagan zardo'zlik Eron orqali asta-sekin Afg'oniston, Hindiston, Xitoy va ularga qo'shni bo'lgan O'rta Osiyo mamlakatlariga tarqala boshlaydi. Har bir mamlakatda u o'ziga xos tarzda shakllanadi va taraqqiy etadi. Biz zardo'zlik tarixiga nazar tashlar ekanmiz, zardo'zlik buyumlari tarixiy taraqqiyotdan ma'lum vazifalarni bajarganligini ko'ramiz. Tarixiy shart-sharoit va jamiyat tuzumlarining o'zgarishi uning tarixiy vazifalarining ham o'zgarib turishiga olib kelgan[10].

Qadimgi Rus ham Vizantiyaga taqlid qilib zardo'zlik san'atini o'rgangan. XIII va XV asrlarda Kichik Osiyo doirasida paydo bo'lgan hamda Vizantiya imperiyasini barbod qilgan usmonli turklar ham ushbu san'atga o'zlarining munosib ulushlarini qo'shganlar, Qrim va Kavkazning har qayeridaki, Vizantiya madaniyati uzoq vaqt va kuchli ta'sir o'tkazgan bo'lsa, o'sha yerda zardo'zlik ham rivojlanavergan. O'rta Osiyoda ham zardo'zlik san'ati, shubhasiz, o'zining chuqur ildiziga ega. Shu narsa ma'lumki, 1403-1406 yillarda Samarqandga sayohat qilgan ispan elchisi Ryui Gonzales de Klavixo o'z estaliklarida, Temur saroyida zardo'zlikning milliy kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan[11]. Esdalik sahifalarida elchilarni qabul qilish marosimiga bag'ishlab o'tkazilgan dabdabali ziyofatlar ta'rifini keltirib yozar ekan, zardo'zlik usulida tikilgan ash'yolarni bir necha bor eslab o'tadi. Zar tikilgan ko'rpa-to'shaklar, ipak matoga zar taqilgan qimmatbaho darpardalar va chodirlar haqida batafsil hikoya etiladi. Klavixo erkaklar va ayollarning zar ipda tikilgan va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kiyimlari haqida zavq bilan yozadi.

Abdurazzoq Samarqandiy o'zining "Hindiston safarnomasi" risolasida Shohruh 1442-yili Hindistonning Kal'kutta viloyati hukmdori huzuriga yuborgan elchilaridan zardo'zi do'ppi ham sovg'a qilib berib yuborganini qayd etib o'tadi.

Hirotda Alisher Navoiy davrida yashab ijod etgan Vosifiy o'zining risolalarida zardo'zlik kasbi to'g'risida so'z yuritgan. Adabiy yig'inlarning qatnashchilari haqida gapira turib, Hasan zardo'z degan bir shaxsning nomini alohida uqtirib o'tadi va uni Hirotning eng obro'li, "istiqboli porloq yoshlari" qatoridan o'rin olganligini aytadi.

XVII asrning oxirida yashagan Samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo'zlik bo'lib, u zar ip bilan matolarga kashta tikkan. O'zbekistonda Buxoro, Samarqand, Farg'ona va boshqa joylarda zardo'zlik maktablari ochilgan. Qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo'ziy kiyimlar mahalliy aholining turli tabaqalari o'rtasida keng tarqalgan. Qo'li gul ustalar amir saroyining ahllari uchun chakmon, kamzul, poyafzal, belbog', chalvor, salla quloq va jul tikkanlar. Boy xonadonning 8-10 yoshdan katta bo'lmagan o'g'il bolalariga sunnat to'yi munosabati bilan zarbof to'n kiydirganlar. Amir Nasrullodan anchagina zardo'ziy kiyimlar saqlanib qolgan. 1885-1911 yillar Buxoroda zardo'zlik san'ati gullab-yashnagan davr bo'lgan. 1920 yilda amirlik ag'darilib, zardo'zlik san'ati xalq qo'lga o'tdi.

Hunarmandchilik sexlari ochilib zardo'zlar birlashib, dabdabali kimxob to'nlar o'rniga do'ppi, ayonlar nimchalari, sumka, tufli, choyshablar, ko'zoynak g'iloflari, divan yostiqlarining g'ilofi tikila boshlandi. 1930 yilda O'zbekistonda rassomlar uyushmasi qoshida zardo'zlik ateliye tashkil etilib, unga tajribali zardo'zlar taklif etildi. Keyinchalik sexlar kengaytirilib fabrikaga aylantirildi. O'sha davrda mohir rassom Omonjon Majidov, mohir zardo'z Umar Hayitov va usta Fayzulla G'aybullaevlar ishga kelgan yoshlar ayniqsa ayollardan mohir kashtado'zlar yetishib chiqishida o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdilar[12] (1.9-rasm).



1.9-rasm. *Usta Omonjon Majidov.*

Zardo'z buyumlarga lola, oftob, bodom, Minorai Kalon, "Somoniyalar" maqbarasi kabi naqsh va rasmlar aks ettirildi. Zardo'zlik san'atining yirik namoyandalaridan biri, buxorolik zardo'z usta No'mon Aminovdir. U 1908 yilda zardo'zlar oilasida dunyoga keldi. Otasi Omonjon Majidov Buxoro amirligi ustaxonasida 12 yil ishlagan edi. U No'monjonga yoshlik chog'idanoq zardo'zlik sirlarini o'rgatdi. No'monjon gulburlik, rassomlik va zardo'zlik tikish sirlarini o'rgandi. N. Aminov ijodidagi yutug'I zar tikish xillarining qirralarini izlab, yangiliklar yaratdi. Toshkentdagi xalq amaliy san'ati muzeyida "Go'ri Amir" tasviri, hamda Samarqandning 2500 yilligiga bag'ishlangan tasviri juda chiroyli va ta'sirchan chiqqan.

Zardo'zlik ustaxonalarining podsho saroylarida joylashganligi o'sha davrlarda uning podsholik poytaxti bo'lgan shaharlardagina taraqqiy etishiga olib kelgan. Masalan, zardo'zlik Somoniylar va G'aznaviylar davrida Buxoroda, Temuriylar davrida Samarqand va Hirotida gullab-yashnagan, Mang'it amirlari davrida yana Buxoroga ko'chgan. Xiva va Farg'ona shaharlarida ham birmuncha rivoj topgan.

Samarqand, Marg'ilon, Qo'qon, Andijon, Buxoro va Toshkent o'lkaning hunarmandchilik markazlari hisoblangan. Qizig'I shundaki, bu vaqtgacha zardo'zlik asosan, «erkaklar kasbi» hisoblangan, «ayollar qo'li tegsa, zar qorayadi», deb ularga tikishga ruxsat berilmagan. Zardo'zlik usullarini

qo'llash texnologiyasi zardo'z faoliyatining o'ziga xos usullarini, bu usullarning o'zaro kombinatsiyalarini va ularni kombinatsiyalashning qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. Zardo'zlikda 30 xil klassik tikish usullari mavjud. Bu usullar o'ziga xos tomonlarning nomlari bilan bir-biridan farq qiladi. Zardo'z faoliyati asosini tashkil etuvchi zardo'zi usullarini texnologik jarayonda bajaradigan vazifasi hamda qo'llanilish o'rniga ko'ra ikki turga ajratish mumkin:

1. Tikish usullari.

2. Bezatish usullari.

Bu usullar zardo'zlik buyumlarini tayyorlash texnologiyasida o'ziga xos o'ringa, o'ziga xos usullar yig'indisiga va o'ziga xos bajarish uslubiyotiga egadir. Zardo'zlik usullarini ana shunday turlarga bo'lib o'rganish ularning zardo'zi texnologiyasidagi funksiyalarini va ularni qo'llash o'rinlarini anglashga, ulardan to'g'ri foydalanishga imkon beradi.

1. Zardo'zi Guldo'zi tikish turi:

- a) guldo'zi tikish usuli;
- b) shakarak tikish usuli;
- v) sochmado'zi tikish usuli;
- g) likkakdo'zi tikish usuli;
- d) vag'ardo'zi tikish usuli.

2. Zardo'zi Zamindo'zi tikish turi:

- a) mavji yak ro'ya tikish usuli;
- b) mavji du ro'ya tikish usuli;
- v) mavji ocha-bachai (mavji cheg'i) yak ro'ya tikish usuli;
- g) mavji ocha-bachai du ro'ya (mavji pushtamohiy) tikish usuli;
- d) mavji chor-dar-chor (du baxyagi, chor baxyagi) tikish usuli;
- e) mavji tunuk tikish usuli;
- y) mavji shoxchai yak ro'ya tikish usuli;
- j) mavji shoxchai du ro'ya tikish usuli;
- z) mavji xanjari tikish usuli;

- i) mavji sambo'sa tikish usuli;
- y) mavji chashmi bulbul (chortai, shishtai, hashtai, du ro'yai chortai, du ro'yai shishtai) tikish usuli;
- k) mavji shash xol (chortai, shishtai, hashtai) tikish usuli;
- l) mavji xishti haram tikish usuli;
- n) mavji bozbandcha tikish usuli;
- o) mavji qandahori (chortai, shishtai, hashtai) tikish usuli.

3.Zardo'zi Bireshimdo'zi tikish turi:

- a) bireshimdo'zi guldo'zi tikish usuli;
- b) bireshimdo'zi zamindo'zi tikish usuli.

4.Tofta yordamida bezatish turi:


- a) tahrir bezatish usuli (tahriri xom, nim toba, yak toba, tahriri sherozi);
- b) tangalak bezatish usuli (tangelak, tangalaki dumcha-nok, tangalaki nuktez);
- v) qobuli bezatish usuli (qobuli, qobuli dumchanok);
- g) marg'o'la bezatish usuli (marg'o'lai yak raftora, marg'o'lai du raftora, marg'o'lai dumchanok, marg'o'lai nuktez);
- d) kunguri sedona bezatish usuli (kunguri sedonai yak raftora, du raftora);
- e) xorak bezatish usuli (xorak, xoraki tunuk);
- y) izmag bezatish usuli.

5.Bezaklar bilan bezatish turi:

- a) likkak bilan bezatish usuli;
- b) vag'ar bilan bezatish usuli;
- v) pulakcha bilan bezatish usuli;

Zardo'zlik tikish usuli o'ziga xos bo'lib, bu quyidagi bosqichda bajariladi. Naqqosh tomonidan naqsh chiziladi. Naqsh nusxasi qalin qog'oz, karton yoki teridan qirqib andazasi tayyorlanadi. Sidirg'a baxmal matoga qadab chiqiladi, ya'ni omonat tikib chiqiladi yoki yelimlanadi. Karton nusxani zar ip bilan qoplab tikib chiqiladi. Biroz bo'rma naqsh gul hosil

bo'ladi. Iroqisimon chok buyum qismlarini va zardo'zi qismlarini pishiq qilib biriktirishda, gazlama bo'laklari chetlarining titilib ketishining oldini olishda qo'llaniladi. Bu chokqatorlar chapdan o'ngga tomon tikiladi. Igna naqsh kesimiga parallel ravishda teskari yo'nalishda sanchiladi. Chok uzunligi zar iplar tikiladigan naqshlar eni uzunligiga bog'liq bo'ladi(1.10-rasm).



1.10-rasm. *Zar tikish usuli.*

Xorak-zar tikishning usuli XIX asr oxirlarida ixtiro qilingan. U zardo'zlikning juda ko'rkam turlaridan biri. Xorak guldo'zi va simdo'zilar atrofida bezak sifatida tahrir o'rnida ishlatiladi. Xorak to'rt-besh qavat zar ip bilan tikiladi(1.11-rasm)



1.11-rasm. *Xorak tikilish usuli.*

Chinnigul (xrizantema) va qashqargul singari kashtalari ham zardo'zlikda keng qo'llaniladi bu turdagi naqshlarning nomi qanday kelib chiqqanligi haqida aniq ma'lumotlar mavjud. Bunga Xitoy chinnilaridagi rasmlar asos bo'lgan. Xitoy chinnilari O'rta Osiyoga keltirilar va g'oyat qadrlanar edi. Shundan keyin Buxoro zardo'zlik naqshlarida chinnigul naqshi kirib kelgan zardo'zlar bu naqishdan har xil Davruq turdagi choponlar va ularning xoshiyalarini tikishda foydalanishgan. Guli chinni naqsh nusxalari zardo'zlik naqsh kompozisiya-larining markazida joylashgan bo'lib, ular kiyimlarning chiroyiga chiroy qo'shgan. Hatto XIX-XX asrlarda Buxoroning shaxar boylari ulardan keng foydalanishgan(1.12-rasm).



1.12-rasm. *Chinnigul (xrizantema) tikilish usuli*

Ayollar pesh kurta va peshonabandi. Chashmi bulbul naqshi tikilishida tikilgan bo'lib, bu pesh kurta va peshonabandni ayollar taqib yurishida sabab ham bo'lgan. Qadimda ayollar insonlarning yomon ko'zlaridan o'zlarini asrash maqsadida shu turdagi peshonaband va peshkurtalardan foydalanishgan. Ulardagi zar naqshlar san'at asari darajasida tikilganki, insonni nazari birinchi navbatda ayol yuziga emas, balki ana shu turdagi peshkurta-larga tushgan(1.13-rasm).



1.13-rasm. *Chashmi bulbul naqshi tikilish usuli*

LOYIHA QISMI

2. LOYIHA QISMI

2.1. Eskiz loyihalash

2.1.1. Liboslar to'plamini kompozitsion yechimi va koloristik qatorni tanlash

Badiiy loyihalash o'ziga ijodiy manbaani tanlashdan tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi. Liboslarni dizaynini yaratishda kompozitsion yechim va koloristik qatorning ahamiyati kattadir.

Kompozitsiya lot. «composito»-mato naqshlarini yaratish va tuzish. Kompozitsiya-badiiy asar shaklining barcha elementlarini, mazkur asarning obrazli g'oyaviy-badiiy mazmunini ifoda etuvchi uzviy bir butunlikka birlashtirish.[13] Kiyim kompozitsiyasi-kiyim shaklining barcha elementlarini, uning mazmunini ifoda etadigan birlikni barpo etish vositalari yordamida tuzib chiqish. Har qanday badiiy asarda uni tashkil etgan barcha

elementlar o'rinli bo'lishi kerak. Kompozitsiya maxsus badiiy tildan iborat bo'lib, uning yordamida san'atkor borliqni aks ettiruvchi g'oya va tuyg'ularni tasvirlab beradi. Kiyimning badiiy obrazi-bu kiyimning aniq vazifasini va borliqni aks ettiruvchi asosiy g'oyani ifodalovchi modelning umumiy qiyofasi. Kostyum kompozitsiyasida naqshning muhim ahamiyati bor. Shaklni naqshdan ajratib bo'lmaydi. Xamonki shaklda naqsh bor ekan demak, naqsh shaklning zarur komponentning bir qismi bo'lib qoladi. Naqsh ham kostyum singari ko'p asrli tarixga ega. U xalqning tarixiy taqdirini, turmush tarzini, tashqi muhitini, iqlimini, fan va texnikani rivojlanishida aks etadi. Kostyumga mato tanlaganda naqshga jiddiy munosabatda bo'lish kerak. Uni yoshga, gavda tuzilishiga, kostyum nimaga mo'ljallanganiga qarab olish kerak.[14]


Ranglarni odam psixologiyasiga ta'siri. Ranglar inson o'zini tutishiga juda katta ta'sir etadi. Ranglar bizning kayfiyatimizni ko'tarishi yoki aksincha tushirishi ham mumkin. Bu inson ongiga tashqi tomonlama ta'sir etadi. Rangning bunday xususiyatlaridan foydalanib biz har-xil hayotiy hodisalarni o'zimizning foydamizga o'zgartirishimiz mumkin. 1750-yilda 1200 rang birikmalari mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib ular soni 10 mln. yetdi.

Kostyumning rangli yechimi kompozitsion g'oyasi bilan chambarchas bog'liq. Psixologiyada ham ranglarga alohida e'tibor qaratiladi. Psixologiyada ranglar 2 xil guruhga bo'linadi: birinchisi iliq ranglar (qizil, sariq, olov rang va oq rang); ikkinchi guruhga sovuq ranglar kiradi(kok, qora va binafsharang) yashilrang ikkala guruhga ham kirishi mumkin. Har bir rangning alohida ramziy ma'nosi bor.

Ranglar kompozitsiyada o'ziga xoslik alomatlari bilan ishtirok etadilar. Barcha ranglar majmuasini 3 ta qatorga ajratish mumkin:

- 1.Qora va oq ranglar o'rtasida joylashgan kulrang axromatik tonlar;
- 2.Xromatik ranglar qatorini (spektr ranglar) quyidagi alomatlarga bo'lish mumkin:

- a)Issiq gamma: sariq, zarg'aldoq, qizil va ularning oraliqlaridagi ranglar;
b)Sovuq gamma: yashil, ko'k, binafsha va ularning oraliqlaridagi ranglar;
c)Qo'shimcha ranglar–rang doirasidagi bir–biriga diametral ya'ni qarama–qarshi joylashadilar (2.1 va 2.2-rasmlar).



2.1-rasm. *Rang doirasi*



2.2-rasm. *Qarama-qarshi joylashgan ranglar*





Taklif modellarni yaratayotgan vaqtning o'zida dizayner, hoh oddiy tikuvchi bo'lsin uni qaysi matodan tikishni ko'z oldiga keltirib ko'radi.

Eskiz yaratayotganda avvalambor unga ketadigan matodan tashqari yana qanday furnitura mahsulotlari ishlatilishini ham inobatga olish lozim.




To'plamdagi liboslar asosan, yoshlar uchun va qomati kelishgan yoki qomatidagi ayrim nuqsoni bor qiz va ayollarga mo'ljallanganligi uchun, to'q ranglardagi matolar tanlangan va matoni bezab turgan zardo'zlik kashtasi iplari ham, shu matolarning rangidan keskin farq qiladigan iplar va zardo'zi tilla va kumush iplari bilan kombinatsiyalashgan.(2.3-rasm). Liboslar kompozitsion yechimini ishlab chiqqanda mantiqiy va to'g'ri, did bilan joylashuvini hamda formaga yaqqollik, nafislik baxsh etishi naqshlarning o'ziga xos joylashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Kompozitsion yaxlitlikni ishlab chiqqanimizda libosning va naqshlarning bir biriga mutanosibligi, ranglar, siuetlar tuzilish va go'zallik mantiqi, qismlarning yaxlitlik, mutanosiblikdagi uyg'unligi, yuqorida qayd qilinganidek, nafaqat insonning yaratuvchanligiga bog'liq. Kompozitsiya alomatlarini biz tabiat formalarida, o'simliklarning tuzilishlarida, mavjudotlarning organizmlarida, koinotning tuzilishida va hokazolarda ham ko'rishimiz mumkin.[15].





2.3-rasm. Zardo'zlik kashtasi iplari.

















D-D	Asbob uskunalar
	ER-7700


B-B	Asbob uskunalar
	ER-7700



D-D	Asbob uskunalar
	ER-7700






A-A	Asbob uskunalar
	ER-7700





D-D	Asbob uskunalar
	ER-7700

B-B	Asbob uskunalar
	ER-7700





A-A	Asbob uskunalar
	ER-7700

B-B	Asbob uskunalar
	ER-7700

D-D	Asbob uskunalar
	ER-7700

2.1.2. Yakunlovchi eskizlarni yaratish va modellarni texnik tavsifini ishlab chiqish.

Liboslar to'plami modellari tavsifi

Asosiy modelga tavsif

Ushbu komplekt o'rta yoshdagi ayollar uchun mo'ljallangan. Kuz-qish mavsumiga mo'ljallangan bo'lib, silueti qumsoatni takrorlaydi. Komplekt- jaket va ko'ylakdan iborat.

O'rta yoshli ayollarga mo'ljallangan bashang oqshom libosi. Jaket a'lo baxmal matosidan milliy "mursak" bichimga ega. Belgacha uzunlikda dekorativ qisqartirilgan. Oldi plankasi barxit matosidan 6 sm qalinlikda, uchi uchburchak shaklni hosil qiladi. Yengi to'g'ri, asosga perpendikulyar bichimli, keng, $\frac{3}{4}$ uzunlikda. Old bo'lak yon qirqimli, yon qirqimi burmaga yig'ilgan. Pastki qismi monjetga burmalar bilan birikkan. Old metall taqilmali.

Ko'ylak matosi-o'rtacha uzunlikdagi tukli barxit. Tepa qismi qomatga yopishgan, etak qismi keng, "yarim quyosh" shaklida umumiy siluet "A" shaklida. Ko'ylak yengsiz va yoqasiz uzun.

Ort bo'lak ikki qismdan iborat. Tepa va yubka qismi. O'rta chiziqda zamok tasma bilan ishlov berilgan. 2 ta bel vitochkadan iborat. Bo'yin o'mizi lodochka shaklida. Etak qismi yarim quyosh shaklida bichilgan.

Old bo'lak bo'lak ikki qismda bo'lingan. Old bo'lak va yon bo'lak. Bo'yin o'mizi xuddi ort bo'lakdek lodochka shaklida bo'lib, ort bo'lakka nisbatan chuqurroq lodochka shaklida.



				Taklif model -2	List
O'zg	List	Hujjat №	Imzo	Sana	

Taklif model-2 tavsifi.

Ko'ylak

O'rta yoshli ayollar uchun mo'ljallangan ayollar bashang oqshom libosi. Ko'ylak matosi-o'rtacha uzunlikdagi tukli barxit. Tepa qismi qomatga yopishgan , etak qismi keng, "yarim quyosh" shaklida umumiy siluet "A" shaklida.

Ort bo'lak ikki qismdan iborat. Tepa va yubka qismi. O'rta chiziqda zamok tasma bilan ishlov berilgan. 2 ta bel vitochkadan iborat. Bo'yin o'mizi lodochka shaklida. Etak qismi yarim quyosh shaklida bichilgan.

Old bo'lak bo'lak ikki qismda bo'lingan. Old bo'lak va yon bo'lak. Bo'yin o'mizi xuddi ort bo'lakdek lodochka shaklida.

Yubkani old qismi ochiq va odl bo'lak qirqimiga zardo'zlik bezak planka tikilgan. Tavsiya qlingan o'lcham va bo'ylar: 88-96 o'lchamlar va 174-176 bo'ylarga mo'ljallab tayyorlash tavsiya etiladi



Taklif model-3 tavsifi

Ko'ylak

O'rta yoshli ayollar uchun mo'ljallangan ayollar bashang oqshom libosi. Ko'ylak matosi-o'rtacha uzunlikdagi tukli barxit. Tepa qismi qomatga yopishgan , etak qismi keng, "yarim quyosh" shaklida umumiy siluet "A" shaklida.

Ort bo'lak ikki qismdan iborat. Tepa va yubka qismi. O'rta chiziqda zamok tasma bilan ishlov berilgan. 2 ta bel vitochkadan iborat. Bo'yin o'mizi tik yoqa. Taqilma chap tomondagi yeng o'mizining ostida joylashgan.

Old bo'lak 2 qismdan tadhkil topgan. Old bo'lak va yon bo'lak. Yelka qismi 2 sm portga tushirilgan. Bo'yin o'mizi 16 sm chuqurlikda "V" shakliga ega. Etak qismi yarim quyosh shaklida bichilgan.

Yeng uchiga qarab kengaygan $\frac{3}{4}$ uzunlikda.

Tavsiya qlingan o'lcham va bo'ylar: 88-96 o'lchamlar va 174-176 bo'ylarga mo'ljallab tayyorlash tavsiya etiladi



				<i>Taklif madel -3</i>	<i>List</i>
<i>O'zg</i>	<i>List</i>	<i>Hujjat№</i>	<i>Imzo</i>		

Taklif model-4 tavsifi

Ko'ylak

O'rta yoshli ayollarga mo'ljallangan barxit matosidan tikilgan bashang oqshom libosi. Matosi – o'rtacha tukli uzunlikdagi barxit .

Libos tepa qismi yopishgan siluetli, etak qismi keng, burmali. Koylak uzunligi uzun, taqilmasi ko'ylak orqa o'rta chizig'ida.

Ko'ylak tepasi ochiq, bel chizig'ida etakdan ajralgan. Ko'ylak old o'rta qism va ikki yon relyefidan iborat. Ko'ylak old qismi o'rta bo'lagi Yeng keng, $\frac{3}{4}$ uzunlikda, pastki monjet va tepa monjetda burmalar bilan qo'shilgan. O'rta chokida molniya taqilmasi bor. Etak qismi yarim quyosh shaklida bichilgan. Etak old qismining o'rtasidan qirqim qilingan. Tavsiya qlingan o'lcham va bo'ylar: 88-96 o'lchamlar va 174-176 bo'ylarga mo'ljallab tayyorlash tavsiya etiladi.



					<i>Taklif madel -4</i>	<i>List</i>
<i>O'zg</i>	<i>List</i>	<i>Hujjat №</i>	<i>Imzo</i>	<i>Sana</i>		

Taklif model-5 tavsifi

Ko'ylak

O'rta yoshli ayollar uchun mo'ljallangan ayollar bashang ko'ylagi.

Materiali: Barxit. Ko'ylak belgacha yopishgan bo'lib, uzunligi oyoq uchigacha. Old bo'lak uch qismda bichilgan va yon ko'krak vitochkasi va bel vitochkalari kesishib reglan vitochka hosil qilgan. Yubkasi yarim quyosh qilib bichilgan. . Ort bo'lak 2 qismdan iborat. Unda bel vitochkalari va o'rta chokining davomida shlitsa mavjud. O'rta chokida molniya taqilmasi bor. Etak qismi yarim quyosh shaklida bichilgan. Etak old qismining o'rtasidan qirqim qilingan. Tavsiya qlingan o'lcham va bo'ylar: 88-96 o'lchamlar va 174-176 bo'ylarga mo'ljallab tayyorlash tavsiya etiladi.



				Taklif madel -5	List
O'zg	List	Hujjat№	Imzo	Sana	



List	Hujjat №	Imzo	Sana	Taklif model-1	List





List	Hujjat №	Imzo	Sana

Texnik eskiz-4

List



Техник eskiz-3

Лист

2.2. Ayollar bashang liboslar to'plamini loyihalash usulini tanlash va asoslash

Bugungi kunga kelib moda olamida zardo'zlik texnikasining turli xil usullaridan keng foydalanib kelinmoqda. Zardo'zlik texnikasining yangi turlari amaliyotga taqdim qilinmoqda

Loyiha vazifalarni eng optimal variantini qidirish jarayonida dizayner modellash, maketlash, muxandis-hisobi va analogiya usullarini qo'llaydi. Dizaynda modellash – bu bir butun ob'yektni yoki ob'yektlar tizimining vaziyatini yoki funksional jarayonini aks etish, tasavvur etish yoki ta'riflab berish jarayonidir. Badiiy siymo, loyiha grafik, retrospektiv, konstruktiv, prespektiv, texnikaviy va kompyuter modellash usullari mavjud [15].

Analogiya usulini o'rganish jarayonida bu usulda tarixiy va milliy kostyumdan , muxandislik yechimlaridan, me'mor inshootlaridan olingan o'xshash yechimlar yaratildi.

Ushbu usul bilan bajarilgan loyihalash usuli ijodiy manbani sharhlash bilan uchrashadi va transformatsiya yordamida uni loyiha yechimiga aylantiradi. Analogiya usuli hozirgi zamon modasi bilan etnografik kostyumlarning bichimi jihatidan o'xshashida asoslash mumkin.

Milliy bichimdagi kiyimlarimiz ham gavdaga nisbatan kattaroq bichiladi ya'ni dinamikada yorqinlikni ta'minlashi uchun yenglarning yaxlit bichilishi sababli yelkadan biroz tushib turadi va to'tburchaksimon siluetni tashkil qiladi. Bugungi kunda milliylikka katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy matolarimizda yaratilayotgan to'plamlar dunyo modasi bilan bellasha oladi, ushbu to'plamdagi chopon ham zamon bilan uyg'unlashishi uchun biroz o'zgartirish kiritilgan, lekin an'anaviy bichim asosi buzilmagan.

Hozirgi kunda kiyim konstruksiyalashda asosan ikki xil konstruksiyalash usulidan foydalaniladi: mulyaj tizimi va hisoblash- grafikli usulning har xil variantlari.

Mulyaj tizim murakkab konstruktiv shakllarni va modellarning ayrim detallarini qurish uchun ishlatiladi. Bu tizim bo'yicha detallar konstruksiyasi gazlama yoki qog'ozni odam qomatiga yoki manikenga qadash tufayli olinadi, so'ngra qog'ozni tekislikda yoyib detallar konturi chiziladi va chiziqlar tutashmasi tekshiriladi.

Hisoblash-grafikli konstruksiyalash tizimi bo'yicha eskizda berilgan model konstruksiyasi qomat o'lchamlari ularga muvofiq qo'shimchalar asosida tuziladi. Hozirga qadar konstruksiyalashda xilma-xil "chizmal" usullar mavjud. Ishlatiladigan usullar asosan hisoblash formulalar tarkibi va grafikli qurish usullari bilan farqlanadi

Ushbu to'plam bajarishda bir necha usullarni o'rganilgan holda hisoblash usuli tanlab olindi va ushbu usulni qo'llagan holda to'plam yaratildi.

ishlab chiqarishga oid talablarni o'zaro bog'lab maxsulotni konstruksiyalash, ishlab chiqarishda texnologik ishlarni tayyorlash va ishlov berish hamda foydalanish jarayonidagi sarf harajatlarni bildiradi.

Ergonomik talab jumlasiga buyumni eksplutatsiya qilish davrida inson uchun qulay sharoit yaratuvchi, uni toliqtirmaydigan sharoit tug'diruvchi faktorlar kiradi. Ya'ni yaratilgan libos inson faoliyati, harakatlanishiga birmuncha qulay, ishlab chiqarilgan matosi havo o'tkazuvchanlik darajasi yetarlicha bo'lishi lozim. Ustki liboslarda asosan issiqlikni saqlab turuvchi qalin va tabiiy matolardan foydalanish inson salomatligida kata ahamiyat kasb etadi.

Funksional talabda model aniq bir vazifaga mo'ljallangan iste'molchining antropometrik o'lchamlari guruhiga mos bo'lishi kerak. Ayni buyumning vazifasi modelga, uning konstruksiyasiga va materiallariga qo'yiladigan talablarni shakllantira oladi. Funksional talabda ishlab chiqilgan modelning aynan qanday funksiyalarni bajarishini hisobga olgan holda matolarning to'g'ri tanlanishi, bichimning to'g'ri tanlanishi, siluetning to'g'ri tanlanishi o'lchamlarga mos holda amalga oshirilishi lozim.

Eksplutatsion talab buyumni foydalanish jarayonida yaroqlilik holatini uzoq muddat davomida saqlanib turish qobiliyati. Bunda model o'z shaklini saqlovchanligi, matolarning chidamliligi, biriktiruvchi choklarning uzilishga chidamliligi kabi talablarga javob berishi kerak [8].

Ushbu liboslar to'plami uchun talablar quyidagi tartibda belgilanadi:

- Estetik,
- Funksional,
- Eksplutatsion.

2.3.5. Loyiha obyektini konstruktiv modellash

Ayollar ko'ylagi asos konstruksiyasida yelka qirqimidagi ko'krak vitachkasi model bo'yicha yon qirqim yeng o'miziga ko'chirildi.

Ko'krak vitachka yeng o'miziga o'tkazilib, bel vitachkaga aylanib bel vitachka bilan birlashadi. Bel vitachkani hajmi kamaytiriladi. Yelka kengligi eskiz bo'yicha aniqlanadi va bo'yin asos nuqtasidan aniqlangan yelka uzunligi belgilanadi. Bo'yin o'mizini shakli eskiz bo'yicha modellashtiriladi.

Old bo'lak lif qismi bel chizig'igacha modellashtirilgan.

Ort bo'lak bo'yin o'mizi dumaloq shaklida eskiz bo'yicha va yelka kengligi old yelka kengligi bilan belgilanadi.

Ayollar milliy choponi asos konstruksiyasidan foydalanildi. Old bo'lakdagi tik yoqa davomida 6 smli planka eskiz bo'yicha modellashtirilgan.

Jaket old va ort bo'lakning uzunligi bel chizig'idan 5 sm yuqorida. Jaketni etak qismida eni 5 smli monjet hosil qilingan. Yeng uzunligi $\frac{3}{4}$ qilib belgilangan. Yeng uchi kengaytirilgan, yeng o'mizi bilan teng.

2.2. Liboslar to'plamini loyihalash usulini tanlash va asoslash

Bugungi kunga kelib moda olamida zardo'zlik texnikasining turli xil usullaridan keng foydalanib kelinmoqda. Zardo'zlik texnikasining yangi turlari amaliyotga taqdim qilinmoqda

Loyiha vazifalarni eng optimal variantini qidirish jarayonida dizayner modellash, maketlash, muxandis-hisobi va analogiya usullarini qo'llaydi. Dizaynda modellash – bu bir butun ob'yektni yoki ob'yektlar tizimining vaziyatini yoki funksional jarayonini aks etish, tasavvur etish yoki ta'riflab berish jarayonidir. Badiiy siymo, loyiha grafik, retrospektiv, konstruktiv, prespektiv, texnikaviy va kompyuter modellash usullari mavjud [15].

Bugungi kun liboslarda milliy an'analar va Yevropa uslublari uyg'unlashib ketgan. Chunki milliy kiyimlarimiz bizning hayot tarzimizga va iqlim sharoitimizga moslashgan, shu bois, erkak va ayollarning doimiy kiyimlarida ham an'anaviy liboslarda o'z aksini saqlab kelmoqda.

Analogiya (o'xshash) usuli qo'yilgan vazifani yechish usuli. Bu usulda tarixiy va milliy kostyumdan, muhandis yechimlaridan, me'mor inshootlaridan olingan o'xshash yechimlar yaratiladi. Ushbu usul bilan bajarilgan loyihalash usuli ijodiy manbani sharhlash bilan uchrashadi va transformatsiya yordamida uni loyiha yechimiga aylantiradi. Analogiya usuli hozirgi zamon modasi bilan etnografik kostyumlarning bichimi jihatidan o'xshashida asoslash mumkin.

Milliy bichimdagi kiyimlarimiz ham gavgdaga nisbatan kattaroq bichiladi ya'ni dinamikada yorqinlikni ta'minlashi uchun yenglarning yaxlit bichilishi sababli yelkadan biroz tushib turadi va to'tburchaksimon siluetni tashkil qiladi. Bugungi kunda milliylikka katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy matolarimizda yaratilayotgan to'plamlar dunyo modasi bilan bellasha oladi, ushbu to'plamdagi chopon ham zamon bilan uyg'unlashishi uchun biroz o'zgartirish kiritilgan, lekin an'anaviy bichim asosi buzilmagan.

Milliy bichimlar asosida yaratilayotgan to'plam eng avvalo kiyimni odam tanasi uchun qulayligini tashqi muhit bilan o'zaro qo'shilishi ta'minlaydi. Ushbu to'plam oddiy bichimlar asosida ya'ni ayollar o'zbek milliy bichimlari Samarqand-Buxoro chopon bichimlarini asos qilib olib yaratilgan.

Bitiruv malaka ishida Baxmal matosiga zardo'zlik kashtasini qo'llab ayollar bashang liboslarini yaratish uchun ayollar jaketi loyihalashning analogiya usuli tanlab olindi, libosni loyihalashda muxandis-hisobi usuli tanlandi.

2.3. Konstruktorlik-texnologik qism

2.3.1. Loyihalanayotgan liboslar to'plami uchun materiallar paketini konfeksiyalash

O'zbekistonning geografik joylashishi va iqlimi. Kuz-qish mavsumida nomotadil iqlim odam organizmiga o'zgacha ta'sir etadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo Respublikalarida ushbu muammo jiddiy ahamiyatga ega. Keng miqyosda o'tkazilgan ilmiy izlanishlar Markaziy Osiyo hududiga taalluqli iqlimiy gidrologik, gigiyeniklik va ekologik muammolarga bag'ishlangan. Hozirgi vaqtga qadar mazkur territoriyaga oid iqlimiy rayonlashtirishning variantlari ishlangan bioiqlimiy kartalar komplekti tuzilgan, turli iqlimiy va bioiqlimiy ta'riflar mavjud. Regionga hos atmosfera jarayonlarining xususiyatlarini o'rganish maqsadida tadqiqotlar o'tkazilmoqda [18]. Libos mo'ljallangan hudud O'rta Osiyo sharoiti uchun mo'ljallanganligi sababli materialning gigroskoplik, havo va suv o'tkazuvchanlik, xususiyatlari yuqori ko'rsatkichli bo'lishi kerak.

Ushbu liboslar to'plami kuzgi- qishki mavsumga mo'ljallangan. O'zbekiston iqlimi serquyosh bo'lganligi sababli, qishda harorat 20-29 gradusgacha pasayadi. qishda ob-havo tez-tez o'zgarib turadi, havo

ko'pincha ochiq bo'ladi va sovuq kunlar ba'zan iliq bulutli yog'in kunlar bilan almashib turadi. Qish dekabr oyining ikkinchi yarmidan boshlanadi

Tabiiy ipakdan jilvali gazlamalar ishlab chiqariladi. Tabiiy ipakning tolali chiqindilarini qayta ishlash asosida yigirilgan iplar olinadi. Bunday ipaklar asosan milliy chopon va to'nlar tikish uchun beqasam, banoras kabi gazlamalar, baxmal va duxobalar ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.

Undan tashqari, tabiiy ipak kashtachilik, zardo'zlik, popopchilik, shokila tayyorlashda ham keng qo'llaniladi.

Barcha ipak gazlamalarining xususiyatlari ko'p vaqt davomida uncha o'zgarmaydi. Tabiiy ipak iplaridan yana yirik gulli va tukli gazlamalar olinadi. Tukli gazlamalarga baxmal kiradi U ipak tolasidan yigirib olingan iplardan tanda tukli o'rilishda ishlab chiqariladi. Tuklar balandligi 1-1,5 mm, gazlamaning yuza zichligi 190 g/mkv, eni 35, 70, 90 sm bo'ladi. Baxmal tikuvchilikda eng qiynaydigan gazlama, u aniq bichishni va ehtiyot bo'lib tikishni talab qiladi. Buyumning barcha qismlarida tuk yo'nalishi bir xilda bo'lishi kerak. Alo baxmal matolari juda ham pishiq, cho'zilmaydi, o'z rangini yo'qotmaydi, temperatura o'zgarishlari uning hususiyatlariga kam tasir etadi. Alo baxmal mtolari qimmatbaxo hisoblanadi, chunki ishlab chiqarishga ko'p kuch va mablag' sarflanadi.. Ishlatilgan tabiy ipak iplar qanchalik qalin bo'lsa, alo baxmal matosi shunchalik zichligini oshiradi.[19]

Tanlangan alo baxmal matosi havo o'tkazuvchan, o'ziga yaxshi suv shimadi, bug' yaxshi o'tkazadi. Matoning tola tarkibi 100% ipak tolasidan to'qilgan bo'lib inson salomatligiga zarar yetkazmaydi

Gazlama xossalariga tolaning uzunligi, qalinligi, ularning mustahkamligi, mayinligi va pishiqligi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

2.1-jadval

№	Mato nomi	Mato tarkibi		Qalinligi		To'qilishi	Eni	O'g'irligi
		Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq			
1.	Alo baxmal matosi	Tabiiy ipak	Tabiiy ipak	220	240	polotno	400	400
2.	Astar matosi	ipak	ipak	180	180	polotno	120	140
3.	Qotirma	kapron	viskoza	520	410	polotno	150	80

Asosiy mato Alo baxmal				Konfe ksion karta
Asosiy mato Baxmal				
Astarlik Krep shifon				
Qotirma dublirin				
Zar ip				
Paxta tolali ip Lx №44				

2.3.2. Konstruksiyalash usulini tanlash va asoslash

Ushbu to'plam milliy bichimdan foydalangan holda yaratildi. To'plamni yaratishda Samarqand-Buxoro milliy bichimi o'rganib chiqildi, o'rganish natijasida ushbu vohada boshqa vohalarga nisbatan bichim to'g'ri

siluetli hamda zardo'zlik texnikasi bilan ajralib turadi. Bizga ma'lumki tarixda har bir vohaning o'z milliy kiyiladigan libosi bo'lgan. Qashqadaryo-Surxandaryo o'zining kashtalari bilan ajralib tursa Xorazm o'zining mashinkada qilinadigan mayda qaviq texnikasi bilan farqlangan Buxoro zar choponlari Samarqand zar choponlaridan uzining naqshlari, zar iplarining rangi, tikilish texnikasi bilan ajralib turgan.[15]

2.3.3. AK chizmasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar

Tipaviy (individual) figuraning o'lchamlari

2.2-jadval.

Ayollar ko'ylagi konstruksiyasini qurish uchun tipaviy jussa razmerlari			
№	O'lchamlar nomi	Shartli belgisi	Qiymati, sm
1	Bo'y uzunligi	P	170
2	Ko'krak aylanasi uchinchi	O _{гIII}	88
3	Belgacha ort bo'lak uzunligi	Д _{тс}	41
4	Bo'ksa balandligi	Д _{тб}	20.6
5	Ort bo'lak yeng o'mizigacha balandlik	В _{прз}	21
6	Bo'yin aylanasi	O _ш	37
7	Yelka kengligi	Ш _п	12.25
8	Ort bo'lak kengligi	Ш _с	34.4

9	Ko'krak vitochkasi kengligi	Р _{НВ}	7
10	Old bo'lak kengligi	Ш _Г	32.4
11	Bel aylanasi	О _Г	70
12	Bo'ksa aylanasi	О _Б	96

AK qurish uchun qo'shimchalar

2.3-jadval

№	Qo'shimcha haq beriladigan konstruktiv qism nomi	Shartli belgisi	Qiymati, sm
1	Ko'krak yarim aylanasi uchinchi	ПогIII	10
2	Belgacha ort bo'lak uzunligi	Пдтс	0,5
3	Ort bo'lak yeng o'mizigacha balandlik	Пвпрз	4
4	Yelka kengligi	Пшп	1,5
5	Ort bo'lak kengligi	Пшс	2
6	Old bo'lak kengligi	Пшг	2

2.3.4. AK va BKni hisoblash va qurish

Loyihalanayotgan model AK hisobi.

2.4-jadval

N	Nomi	Belgilanishi	Hisobi	Qiymat i, sm
1	2	3	4	5
1	Bo'yin uzunligi	0-1		2
2	Bo'yin o'mizidan kurakkacha uzunligi	1-2	$B_{np3}+4 \text{ см} = 21+4$	25
3	Ko'krak aylanasi	2-3	$0,5O_{r3}+10\text{см}$	10
4	Vitochka kengligi	3-4		
5	Belgacha bo'lgan uzunlik	1-5	$D_{tc}+0,5\text{см}$	41,5
6	Bo'ksagach a bo'lgan uzunlik	5-7	$D_{тб}$	20,6
7	Bo'yin o'mizi kengligi	0-9	$1/5O_{ш}+0,4\text{см}(+0,8\text{см})$	7,8
8	Kurak balandligi	2-10	$\frac{1}{2} /1-2/$	12,5
9	Yelka nuqtasi	1-11	$\frac{1}{4} /1-2/$	6,2
10	Ort bo'lak kengligi	2-12	$\frac{1}{2} IIIc+1,5\text{см}(+4\text{см})$	18,7
11		14-15		2
12	Yelka kengligi	9-16	$III_{п}+2\text{см}(+3,5\text{см})$	14,2
13	Old bo'yino'miz kengligi	4-17	$1/5 O_{ш}+0,2\text{см}(0,6\text{см})$	7,6
14	Oldbo'yin o'miz	4-18	$1/5 O_{ш}+0,3\text{см}$	7,7

	kengligi			
15	Yelka kengligi	17-19	$P_{HB}(0,5p_{HB})$	7
16	Yelka qiyalamasi	19-20	/9-16/-1cm	13,2
17	Yelka chuqurligi	20-21		1,5
18	Old bo'lak kengligi	3-22	$s_{0,5} IIIr + 0,5 / 17-19 / +1cm$	19,7
19		22-23	1/3 /3-18/	
20	Ko'krak uchi nuqtasi	22-24	0,5 /3-22/	9,8
21	O'rta chok nuqtasi	22-25	0,5/11-22/	26,7

2.3.5. Loyiha obyektini konstruktiv modellash

Ko'ylak.

Ayollar ko'ylagi asos konstruksiyasida yelka qirqimidagi ko'krak vitochkasi model bo'yicha yon qirqimga ko'chirildi.

Yon qirqimidagi vitochka ko'krak uchi bilan relyef hosil qilgan holda old vitochka bilan kesishgan, old bo'lak ikki qismga ajraltildi. Old yon bo'lak va old o'rta bo'lak.

Old va ort bo'lak eskiz bo'yicha belgacha. Beldan yubka qismi yarim quyosh qilib bichilgan

Old bo'lak yelka uzunligi eskiz bo'yicha 5sm ga qisqartirilgan. Bo'yin o'mizi model bo'yicha 14 sm ga chuqurlashtirilgan. Bel vitochkalari mavjud.

Ort bo'lak yelka uzunligi eskiz bo'yicha 5 sm ga qisqartirilgan. Bo'yin o'mizi model bo'yicha 9 sm ga chuqurlashtirilgan. Bel vitochkalari mavjud. Ort bo'lak bel qismida vitochkalar mavjud. Ort bo'lak o'rta chokining oxirida shlisa mavjud.

Jaket.

Ayollar milliy choponi asos konstruksiyasidan foydalanildi. Chopon stilizatsiya qilindi. Jaketda yoqa mavjud bo'lib, yoqa old bo'lakka tikilgan. Old bo'lakdagi tik yoqa davomida 6 smli planka model bo'yicha modellashtirilgan.

Jaket old va ort bo'lakning uzunligi beldan 5 sm yuqorida. Bel qismida bo'yi 6 smli monjet qilingan. Yeng o'mizi yon qirqimiga perpendikulyar. Ort bo'lak bo'yin o'mizi model bo'yicha 2 smga chuqurlashtirilgan va yoqa tikilgan. Yeng to'rgi to'rtburchak shaklida bo'lib, model bo'yicha madellashtirilgan.

2.3.6. Ishchi hujjatlarni ishlab chiqish

2.3.6.1. Yangi model andozalarini tayyorlash tamoyillari tavsifi

Detallar andazalarining chizmasi bu ularning konstruksiyasini, shakli va o'lchamlarini, ishlov berish hamda bichishdagi texnik shartlarini ifodalaydigan texnik hujjatdir. Andazalarning chizmasi buyumni tuzuvchi barcha detallarga, konstruktorlik hujjatlarning yagona sistemasi talablariga muvofiq tayyorlanadi [22].

Kiyim detallari andazalarining chizmasi konstruksiyaning model xususiyatlari kiritilgan texnik chizma asosida tavsiya qilingan materiallar xususiyatlari haqidagi va ularga texnologik ishlov berish usullari to'g'risidagi ma'lumotlar yordamida tuziladi. Andazalar chizmasi quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

- konstruksiya chizmasi batafsil tekshiriladi;
- chizmaga gazlamaning kirishuvchanligi bilan bog'liq aniqliklar kiritiladi;
- detallar chizmasining nusxalari boshqa qog'ozga tushiriladi;
- asosiy detallar andazalarining ishchi chizmasi quriladi;
- hosila va yordamchi andazalarning ishchi chizmalari quriladi;
- ishlab chiqarishda foydalanishga mo'ljallangan andazalar chizmasidan andazalar shablonlari tayyorlanadi.

Qayd etilgan ketma-ketlik quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Konstruksiya chizmasini tekshirish maqsadida old va orqa bo'laklar, qirqma yon bo'lak, yenglar, ostki yoqa singari asosiy detallarning nusxasi maxsus moslama yordamida chizmadan qalin qog'ozga ko'chiriladi va qirqib olinadi. Qirqib olingan andazalar shablonida ko'krak, bel, bo'ksa chiziqlari, old o'tar chizig'i, vitachkalar, cho'ntaklar chizig'i va boshqa asosiy konstruktiv chiziqlar belgilanadi.

Andazalar shabloni yordamida konstruksiya chizmasida biriktiriladigan qirqimlarning tengligi, konstruktiv qirqimlar tutashmalari, nazorat kertiklar joylarining detallarda o'zaro mosligi tekshiriladi.

Andozalardagi chok haqlari

2.5-jadval

№	Detal va qirqimlar nomi	Chok xaqi nomi va qiymati, mm					Izo
		Birikirma chok	Mag'iz chok	Buklash qayilishga	Qirqishga	Kirishtirish va ishlov berishga	
1	2	3	4	5	6	7	8
Ko'ylak Old bo'lak							
1	Yelka qirqimi	10	-	-	-	-	
2	Bo'yin o'miz qirqimi	10	-	-	-	-	
3	Etak qirqim	-	-	20	-	-	
4	Yon qirqim	10	-	-	-	-	
5	Yeng o'miz qirqim	10	-	-	-	-	
Old yon bo'lak							
6	Yelka qirqimi	10					
7	Yeng o'mizi	10					
8	Yon qirqimi	10					
9	Yon o'rta qirqimi	10					
10	Etak			20			
Ort bo'lak							
11	Yelka qirqimi	10	-	-	-	-	

12	Bo'yin o'miz qirqimi	10	-	-	-	-	
13	Etak qirqim	-	-	20	-	-	
14	Yon qirqim	10	-	-	-	-	
15	Yeng o'miz qirqim	10	-	-	-	-	
16	O'rta chok qirqimi	10	-	-	-	-	
	Yubka qismi						
17	Bel aylanasi	10					
18	yubka yon qirqimi	10					
19	etak qismi			20			
	Jaket						
	Old bo'lagi						
20	Yelka qirqimi	10	-	-	-	-	
21	Bo'yin o'miz qirqimi	10	-	-	-	-	
22	Planka qirqim	10	-		-	-	
23	Yon qirqim	10	-	-	-	-	
24	Yeng o'miz qirqim	10	-	-	-	-	
	Old bo'lak plankasi						
25	Yoqa uchi qirqimi	10	-	-	-	-	-
26	Planka pastki qirqimi	0	-	-	-	-	-
27	Yon qirqimi	10	-	-	-	-	-
28	Planka tepa	10	-	-	-	-	-

	qirqimi						
Ort bo'lak							
29	Yelka qirqimi	10	-	-	-	-	
30	Bo'yin o'miz qirqimi	10	-	-	-	-	
32	Yon qirqim	10	-	-	-	-	
33	Yeng o'miz qirqim	10	-	-	-	-	
34	O'rta chok qirqimi	10	-	-	-	-	
Ort bo'lak pastki qirqimi							
35	O'rta chok qirqimi	10	-	-	-	-	-
36	Tepa qirqim	10	-	-	-	-	-
Old adipi							
38	Yoqa uchi qirqimi	10	-	-	-	-	
39	Planka pastki qirqimi	10	-	-	-	-	
40	Yon qirqim	10	-	-	-	-	
41	Planka tepa qirqimi	10	-	-	-	-	
Ort adipi							
42	Yelka qirqimi	10	-	-	-	-	
43	Bo'yin o'miz qirqimi	10	-	-	-	-	
44	Adip qirqim	-	-	20	-	-	
Ort bo'lak pastki qismining adipi							
45	O'rta chok	10	-	-	-	-	

46	Pastki qirqimi	10	-	-	-	-	
47	Tepa qirqim	-	-	-	-	-	
yeng							
48	O'rta chok	10	-	-	-	-	
49	Yeng qiyamasi	10	-	-	-	-	
50	Yeng uchi	-	-	20	-	-	
Yeng pastki qismi							
51	O'rtachok	10	-	-	-	-	-
52	Pastki qirqim	10	-	-	-	-	-
53	Tepa qirqim	10	-	-	-	-	-

Detallar spetsifikatsiyasi

2.6-jadval

Ayollar jaketi

№	Buyum Detallarining nomi	Detal kodining belgisi	Soni		Izoh
			andozalar	detallar	
1	2	3	4	5	6
1	Old bo'lak	001	1	2	
2	Ort bo'lak	002	1	1	
3	Old yon bo'lak	003	1	2	
4	yeng qismi	004	1	2	
5	Yoqa qismi	005	1	2	
6	Belbog'	006	1	1	

Ayollar ko'ylagi

№	Buyum detallarining nomi	Detal kodining belgisi	Soni		Izoh
			Andozalar	Detallar	
1	2	3	4	5	6
1	Ko`ylak Ort bo`lak	001	1	2	
2	Old o`rta bo`lak	002	1	1	
3	Old yon bo`lak	003	1	2	
4	Yubka	004	1	1	

Andozalarda nazorat kertiklar qo'yish joylarining ro'yxati

2.7-jadval

№	Detallar va qirqimlar nomi	Kertiklar joylanishi
Ko'ylak		
1	Old bo'lak - yon qirqimi -yon qirqimi -bo'yin o'mizi	Bel chizig'ida Ko'krak vitochkasi nuqtasi o'miz markazida
2	Old yon bo'lak -yon qirqimi -yon o'rta qirqimi -yeng o'mizi	bel chizig'ida bel chizig'ida 31 nuqta
3	Ort bo'lak -o'rta chokida -o'rta chokida	bel chizig'ida kurak chizig'ida
4	Yubka -bel qismi -yubka yon qismi	Bel chizig'ida markazida va yonida yubkani yon qismida
Jaket		
1	Ort bo'lak -bo'yin o'mizi	Bo'yin o'mizi o'rta chizig'ida
Yeng		
2	Yeng -yeng qiyalama qirqimi	Yeng uchida Yeng o'mizi o'rta chizig'ida

**Detallarda tanda ipining nominal yo'nalishi va andozalarda ulardan
yo'l qo'yilgan og'ishlar**

2.8-jadval

№	Detallar nomi	Tanda ipining yo'nalishi	Tanda ipining yol qoyilgan og'ishi
1	2	3	4
Ko'ylak			
1	Old o'rta bo'lak	Etak chizig'iga perpendikulyar	2%
2	Old yon bo'lak	o'rta chok qirqimigaga parallel	1%
3	Ort bo'lak	Etak chizig'iga perpendikulyar	2%
4	Yubka	Etakga perpendikulyar	3%
Jaket			
5	Tik yoqa	O'rta chok qirqimiga parallel	2%
6	Ort bo'lak	Belbog' chizig'iga perpendikulyar	2%
7	Old bo'lak	Belbog' chizig'iga perpendikulyar	2%
8	Old yon bo'lak	O'rta chok qirqimiga parallel	1%
9	Yeng	Yeng uchiga perpendikulyar	2%
10	Belbog'	Ort va old bo'lakka perpendikulyar	3%

2.3.6.2. Andozalar joylashmasi

Buyumning nomi: Ayollar jaketi

Razmer bo'y va to'lalilik guruhi: 176-88-96

To'shama turi: Yuzma – yuz

Yoyilmaning haqiqiy yuzasi: 350 sm

Yoyilmaning kengligi: 45 sm

Gazlama fakturasi- tukli

Gazlama guli- ikat

2.3.7. Liboslar to'plamining texnologik ishlov berish xususiyatlari

Avtocadda boladi

2.4. Liboslar to'plamini reklama loyihasini ishlab chiqish

2.4.1.Nom tanlash (BRAND NAME)

Brend-bu raqobatchilardan farqlanish maqsadida aniq sotuvchi yoki sotuvchilar guruhining tovarlari va xizmatlarini belgilash uchun qo'llanadigan so'z, ifoda, belgi, simvol, dizaynerlik ishi yoki ularning kombinasiyasidir.

Moda industriya sohasida reklama muhim o'rin egallaydi. Reklama va biron narsa haqida ommaga ma'lumot berish, savdo yetakchisidir. Har bir iste'molchi o'z shaxsiy ehtiyojlariga ega, betakror shaxsdir. Iste'molchining umumlashtirilgan tavsiyasini yaratish uchun birinchi qadam, uning muayyan guruh, yoshlar, ayollar, ziyolilar, ishchilar va hokazolarga mansubliklari bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda har bir iste'molchi o'z uslubiga ega bo'lishni hoxlaydi [23].

Logotiplarni ustidan ishlash muhim va murakkab ish xisoblanadi. Logotip – bu so'z orqali ifodalangan belgi shakli. Ular mavjud shriftlarni, garniturani chizilishi va uni korrektirovkasidan, bo'sh qolgan joylarni to'ldirishdan, grafemalarni transformatsiyasini qidirishdan yaratilish boshlanadi.

Ushbu liboslar to'plami uchun brand-name ishlab chiqishda yuqoridagi fikrlarga tayanildi. Brand-name “NisoNur” deb nomlandi. Shior” Sening ko'rinishing sening statusing” deb tanlandi. Har bir inson birinchi navbatda o'z ko'rinishiga jiddiy e'tibor berishi va shu bilan birga uni qaysi tabaqaga mansubligi ,qaysi kasb egasiga tegishliligini kostyum ko'rsatib beradi.



2.4.2. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.

Ko'p ming yillar davomida reklama insoniyatning doimiy hamroxi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda.

“Reklama” atamasi lotincha “reclamare” so’zidan olingan bo’lib, “qattiq qichqirmoq”, “habar qilmoq” ma’nolarini bildiradi. Reklamaning ta’rifi ko’p. Jumladan, xorij adabiyotida reklama, asosan marketing nuqtai nazaridan talqin etiladi. Masalan, Xalqaro reklama assotsiatsiyasining ta’rifiga ko’ra, reklama: “g’oyalar, tovarlar yoki xizmat turlarining aniq buyurtmachi tomonidan haq to’langan holda noshaxsiy taqdim etilishi va oldinga qarab siljishining har qanday shaklidir”[24].

Reklama – bu axborot tarqatishning pullik shakli bo’lib, u tovarni yoki xizmatni hajmini ko’paytirish maqsadida buyurtmachi tomonidan berilgan informatsiyani jamiyatga yetkazish usuli hisoblanadi.

Reklama quyidagi vazifani bajaradi:

- Axborot beruvchi yangi tovar, firma aniq hodisa to’g’risida aniq ma’lumot beradi;
- Bildiruvchi tovar yoki firmaga sekin-asta iste’molchilarni e’tiborini ko’paytirish, bilimlarini oshirish va shu tovarni sotib olishga undash;

- Eslatuvchi haridlar orasida tovarni qayerdaligini unutmaslik va tovar to'g'risida axborotni esda tutishni ta'minlaydi.

Reklamani yaratish quyidagi bosqichlardan iborat:

- Iste'molchilarni o'rganish, reklama qilinadigan tovar yoki xizmatlarni o'rganish va bozorni o'rganish;
- Reklama vositalarini ishlatish, ishlab chiqarish, maqsadni aniqlash va qo'yish, bozor chegaralarini belgilash va ijodiy yondashuvni ishlab chiqish;
- Reklama vositalarini tanlash va ularga sarflanadigan harajatlarni hisoblash. Narx va e'lonlarni ko'rsatish grafiklarini ishlab chiqish;
- E'lonlarni mazmunini tuzish, badiiy bezatish va ishlab chiqarish .

Reklama turlari bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- Televidenie va radioreklama;
- Banner reklama;
- Suviner yoki buyumli reklama;
- Direkt meyl;
- Tashqaridagi (narujnaya) reklama: brandmauerlar, videopanellar, siti format, yo'l ko'rsatkichlar, tranzit reklama, reklama, laytboksif, chiroqli panellar.

Reklama turlaridan buklet, flayer va bannerlarda tasvirlangan reklamalardan ham foydalanildi. Ushbu to'plam uchun banner usuli tanlandi va kolleksiya reklama loyihasi ishlab chiqildi[26].

Bundan tashqari To'plam uchun reklama turlaridan:

- tashqi reklama;
- matbuotdagi reklama;
- TV dagi reklama;
- internetdagi reklama;
- bannerlardan keng foydalanildi [16]

Liboslar to'plami reklamasini yoritishda fotosessiyalar liboslarga monand bo'lishi uchun shahar fonida o'tkazildi. Shuningdek, ushbu liboslar to'plami Toshkent moda haftaligi doirasida bo'lib o'tgan "Milliy libos"

festivalida namoyish etildi shuningdek, diplom bilan taqdirlandi va OAV tomonidan yoritib berildi.

Ekologik qism

3.Ekologik qism

Shikastlanganda birinchi yordam ko'rsatish turlari

Birinchi yordam –baxtsiz hodisalar ro'y berganda, kishi shikastlanganda yoki to'satdan kasal bo'lib, qolganda uning hayotini saqlab qolish va yomon asoratlardan omon qolishi uchun ko'rsatiladigan tez va oddiy tadbirlar majmui; tibbiy xodim yetib kelguncha yoki ularni kasalxonaga olib borguncha amalga oshiriladi. Birinchi yordam o'z-o'ziga yoki boshqalar tomonidan(o'zaro)

ko'rsatilishi mumkin[27]. Shikastlangan odam jarohatini o'zi bog'lay olsa' zaharlanish alomati bo'lganida, emas ko'p suyuqlik ichib me'dani yuvish va qayt qilishga quvvati kelsa, o'ziga-o'ziga Birinchi yordam ko'rsatishi mumkin. O'zaro Birinchi yordam odatda boshqa kishi tomonidan ko'rsatiladi. Kishining hayoti xavf ostida qolganda , qon ketganda, tok urganda, zaharlanishda, koma, shok va boshqa holatlarda darhol Birinchi yordam ko'rsatish zarur. Keyingi ko'rsatiladigan tibbiy yordamning qanchalik to'g'ri ko'rsatilganligiga bog'liq.

Birinchi yordam uch xil tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi: 1) tashqi shikastlanuvchi omillar (elektr toki, bosib qolgan og'ir narsa va boshqalar) ta'sirini darhol bartaraf etish yoki shikastlangan kishini noqulay sharoitdan holi qilish (suvdan, o't tushgan joydan olib chiqish va boshqalar); 2) shikastlanish tarziga qarab Birinchi yordam ko'rsatish (bular haqida suyak chiqishi, suyak sinishi, zaharlanish, hushdan ketish, jarohatlanish, kuyish va b.); 3) yaqin atrofidagi kasalxona, poliklinikaga yetkazish. Odam to'satdan betob bo'lib qolganida, turli xil baxtsiz hodisalar ro'y berganida, albatta tez yordam chaqirish, noiloj qolgan hollarda duch kelgan transportda davolash muassasasiga olib boorish zarur[28].

Har bir inson birinchi yordam ko'rsatishning elementar usullarini bilishi kerak. Bu usullar jarohatlangan kishi organizmiga sun'iy qon aylanish

va havo almashishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu usul mutlaqo zarur bo'lgan 2 ta chora tadbirni qo'llashni taqazo etadi.

1. Sun'iy nafas oldirish, "og'izdan –og'izga", "og'izdan –burunga" bo'lishi mumkin.
2. Yurakni tashqi (yopiq) massaj qilish.

Jabrlanuvchi hushidan ketib, yana o'ziga kelsa, uni darhol vrach kelguncha yotqizib, osoyishtalikni ta'minlash kerak va tomir urushi bilan nafas olishini nazorat qilib turishi zarur. Agar vrach chaqirishni imkoni bo'lmasa, uni tezlik bilan shifoxonaga zambil yoki transportda olib borishi kerak.

Agar jabrlanuvchi hushidan ketgan bo'lsa–yu, lekin tomiri barqaror bo'lsa, uni tekis joyga yotqizib, ko'ylak yoqasini yechib, toza havo kelishini ta'minlab, burunga nashatirda namlangan paxtani qoyib hidlatish yoki yuzga sovuq suvuq suv sepish kerak. So'ngra vrachni zudlik bilan chaqirish lozim.

Nafas olish va qon aylanish to'xtaganda, xujayra va to'qimalar qondagi oxirgi kislorodni so'rib oladi, qonning rangi o'zgaradi. Teri va shilimshiq pardoning ko'karishi kuchayadi. Organizmda qaytarib bo'lmas jarayonlar sodir bo'ladi. Insonni hayotga qaytarish har daqiqa o'tgan sayin qiyinlashadi.

Shunday qilib klinik o'lim holati-hayotdagi o'limga o'tish davri-nafas olish va yurak faoliyatini to'xtatishdan boshlab, bosh miya po'stlog'ini hujayralari o'lishigacha bo'lgan vaqt bilan aniqlanadi.

Inson biror bir baxtsiz hodisa, masalan elektr toki urganda klinik o'lim vaqti 7-8 minut davom etishi mumkin. Klinik o'lim davri tugagandan so'ng, biologik (haqiqiy) o'lim yuzaga keladi, ya'ni insonni hayotga umuman qaytarib bo'lmaydi.

Yurakni massaj qilishdan a avval qon aylanishlarini tiklash ta'minlashadi. yuyak asosiy maqsadi, qon aylanishiga keladi. Yurak ko'krak qafasi

Yurakko'krak qafasini ichida bosilganda oralig'iga joylashgan., shuning uchun ko'krak bosilganda , uni umurtqa pog'onasi tomon taxminan 4 smgacha siqish mumkin. Bu bosim yurakka ta'sir etib, uning ichidan qonni aortaga so'ngra esa kichik va katta qon aylanish doirlariga siqib chiqaradi[29]

Xulosa

Bitiruv malaka ishi mavzusi “Baxmal matosiga zardo’zlik kashtasini qo’llab ayollar bashang liboslari to’plami dizaynini yaratishda to’plamdizayn loyihasini ishlab chiqish” mavzusi berilgan. Bu mavzu bo’yicha zamonaviy moda yo’nalishi o’rganildi va marketing tadqiqotlari o’tkazildi, ushbu tahlillar asosida 5 ta model yaratildi. Tanlangan model uchun buyumga qo’yiladigan talablar ishlab chiqildi.

Konseptsiya asosida ijodiy manbaa tanlandi va asoslanib liboslar to’plami yaratildi. Zardo’zlik texnikasi tarixda faqatgina zodagonlar uchun qo’llanilgan bo’lsada, keyinchalik u yillar mobaynida rivojlanib bordi va hunarmandchilikning o’ziga xos bir yo’nalishiga aylandi. Tobora rivojlanib borayotgan moda olamida ham ushbu san’at turidan keng foydalanilmoqda. Buning sababi esa zardo’zlik texnikasi nafaqat bejirim ko’rinishi balki, uning har tomonlama betakrorligidadir. Bugungi kunda zardo’zlik texnikasini interyerda, uy ro’zg’or buyumlarida, liboslarda, turli bezak elementarda ham ko’rishimiz mumkin. Masalan, zardo’zlik texnikasida yaratilgan pardalar, dasturxonlar, gilamlar, kravdat choyshablarida bezak sifatida qo’llanilmoqda.

O’zbekiston iqlimi o’rganib chiqilgan holda, komplekt uchun material tanlandi va material hususiyatlari o’rganib chiqildi. “Unifrend Aldrich ingliz metodikasi” uslubi bo’yicha konstruksiya qurish usuli tanlandi. Ishchi hujjatlar tuzilib yangi model andozalari tayyorlandi. Konstruksiyani bajarishda Unifred Aldrich metodikasidan qo’llanildi. Ingliz konstruksiyalash uslubi boshqa uslublarga qaraganda yeng konstruksiyasi, old, ort, asosiy va asos konstruksiyasi ustida quriladi. Uning qurish usuli ham boshqalarga nisbatan ancha qulay, qomatda ham yahshi turadi. Ingliz uslubi birmuncha qulayliklarga egaligi bilan ham ajralib turadi. Inson tanasida ham noqulayliklar keltirmaydi. Harakat qulayligini ta’minlaydi.

Bitiruv malaka ishida ayollar bashang libosi komplekti texnologik jarayoni loyihalandi. Model tikish uchun buyum matosi hususiyatlari

o`rganilgan holda, bezak sifatida mashina kashtasidan foydalanib zar ip va ipak bilan kashtalandi.

Liboslar to`plami reklamasini yoritishda fotosessiyalar liboslarga monand bo`lishi uchun Toshkent Davlat Alisher Navoiy opera va balet teatrida o`tkazildi.

Ushbu liboslar to`plami Toshkent moda haftaligi doirasida bo`lib o`tgan “Milliy libos” festivalida namoyish etildi va diplom bilan taqdirlandi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ – 4947 сонли Фармони. 2017-2021 йилларларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устивор йуналиши бўйича Харакатлар стратегияси.
2. Мирзиёев Ш.М. “Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга курашимиз ” Тошкент: “Ўзбекистон” 2017 йил
3. G.K.Xasanbayeva, V.A.Chursina. “Kostyum tarixi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002 yil.
4. “Dizayn nazariyasi va metodologiyasi asoslari” fani bo‘yicha ma’ruza kursi
5. Buxoro zardo'zlik san'ati. P.A Goncharova. Toshkent – 1986
6. Г.М.Гусейнов, Ермилова В.В. Композиция костюма. –М:Академия 2003
7. N.Мо'minov, F. Azimova,O. Shmigun. “ Marketing asoslari”. “Sharq” Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
8. Yanchevskaya YE.I. «Ayollar ustki kiyimini konstruksiyalash». O‘qituvchi 1997 y.-287bet
9. . Bulatova YE.B., Yevseyeva M.N. «Konstruktivnoye modelirovaniye odejdi». ITS “Akademiya” 2004 g.
10. .R.G.Mukminova.,O.A.Suxareva. “Kostyum narodov Sredney Azii”.Izd-vo: «Nauka» 1979 g.
11. Istoriya I kultura narodov sredney Azii. Moskva, nauka. 1976 g.
12. D.Raxmatullayeva, U. Xodjayeva, F. Ataxanova. Libos tarixi. T.: “Sanostandart” nashriyoti, 2015.
13. Zardo'zlik texnologiyasi. D. Jabborova . G'afur G'ulom Toshkent – 2004
14. Xasanbayeva G.K., Chursina V.A. Kostyum tarixi. –T: O‘zbekiston,2002.
15. Пармон Ф.М. Композиция костюма. Одежда обувь, аксессуары. –М: «Триада плюс»,2002.

16. G.K.Xasanbayeva, Shomansurova M. Maxsus kompozitsiya asoslari. – T.: Yangi asr avlodi, 2008.
17. O'zbek milliy kiyimlari. (XIX-XX asrlar) Toshkent – 2006 Kamilova X.X.
18. M.Sh.Jabborova “Tikuvchilik texnologiyasi”. – T.: “O’zbekiston”, 1994.
19. Kamilova X. X. “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” Toshkent. Cho’lpon,2011
20. . Martinova A.I., Andreyeva YE.G. «Konstruktivnoye modelirovaniye odejdi». LP. 2002 g. - 196 str.
21. . Xamrayeva N.K. “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”. Toshkent. 2011 y. 22. E.A.Янчевская “Ayollar ustki kiymini konstruksiyalash”. “O’qituvchi”,1997.
23. G.Karimova, X.Kamilova. Reklama va dizayn. Toshkent “O’zbekiston” 2012
24. .Unifrend Aldrich. «Конструирование и моделирование». Женская одежда. Москва 2008 г.
25. Коблякова Е.Б. «Конструирование одежды с элементами САПР». Москва.1988
26. J.Ochilov “Gazlamashunoslik”. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.17.1
27. Кокеткин П.П. «Справочник по конструированию одежды». Москва. 1982
28. .Единая методика конструирования одежды сэв (ЕМКО СЭВ), Том – 2. – М. Nodel Chapman and Judith Cheek. “Creative fashion drawing”.
29. Shodmonov Yu. Sh.” Ekosan ekologik taraqqiyot yo’lida”. –T.: 1889.
30. G.Karimova, X.Kamilova. Reklama va dizayn. Toshkent “O’zbekiston” 2012
31. www.modnaya.ru
32. www.vega-tur.ru/news/2783.html
33. www.fashionblog
34. www.wikipedia.ru